

## Mundarija

<b>Kirish</b> .....	3
<b>I-Bob. Mujassam nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning ilmiy-nazariy asoslari.</b>	
1.1. Muammoning o'rganilganlik holati.....	8
1.2. Ta'lim – anomal bolaning korreksiyasi va rivojlanishining muhim vositasi sifatida.....	20
I-Bob bo'yicha xulosa.....	34
<b>II-Bob. Mujassam nuqsonli bolalarning psixologik-pedagogik tavsifi.</b>	
2.1. Mujassam nuqsonli bolalarning tavsifi .....	35
2.2. Aqli zaif bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari.....	37
2.3. Serebral-falajli bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari .....	43
II-Bob bo'yicha xulosa.....	48
<b>III-Bob. Mujassam nuqsonli bolalarda korreksion ishni tashkil etish.</b>	
3.1. Aqli zaif serebral-falaj bolalarning bilish faoliyatini korreksiyalash .....	49
3.2. Mujassam nuqsonli bolalarning harakat sohasini korreksiyalash.....	60
III-Bob bo'yicha xulosa.....	66
 Xulosa.....	 67
 Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	 69

## KIRISH.

O'zbekiston Res'ublikasi "Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tatbiq etishdan asosiy maqsad bolalarni qanday rivojlanishidan qat'iy nazar, milliy mafkura asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs etib tarbiyalashdan iborat. Undan maqsad bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanganlik darajasi hamda o'zlashtirish imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularga mos ravishda ta'lim mazmunini belgilashga irovard natijada to'liq maktabga tayyorlashga qaratilgan.

<sup>1</sup>O'zbekiston inson hayotini himoyalashda, jamiyat fuqarolarining alohida yordamga muhtoj bo'lgan qatlamiga, ya'ni ularning yashash, ta'lim olish, jamiyatda o'z o'rinlarini to'ish masalalariga e'tibori doirasini tobora kengaytirib borayotgan davlatlardan biri ekanligi jahon hamjamiyati tomonidan tobora keng e'tirof etilmoqda. Ya'ni barcha islohatlarning markazida bo'lgan ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar uning tarkibiy qismi hisoblangan maxsus ta'lim tizimini ham qamrab olmoqda. So'nggi yillarda maxsus ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tadbirlar nafaqat sohaning moddiy-texnika bazasi, balki ta'lim sifatini ta'minlashni ham nazarda tutadi. Maxsus ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli uyg'unlashuvlari ushbu kunda olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaga bog'liqligi bois, ushbu tur muassasalari uchun pedagog xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, ushbu muassasalar metodik ta'minoti kabi masalalar o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan sanaladi.

O'zbekistonda alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar uchun keng tarmoqli ta'lim tizimi shakllangan bo'lib, ularda har bir muammoning tavsifiga mos holda, ularda turli ko'rinishdagi muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan korreksion dasturlar asosidagi ta'lim-tarbiya amalga oshirilmoqda.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi „Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” Toshkent 1997y.

Mamlakatimiz ‘rezidenti SHavkat Mirziyoev rahbarligida jamiyatimizning barcha sohalarida qizg’in islohotlar va yangilanish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Buni jismoniy tarbiya va s’ort sohasida ham sezilarli natijalar bilan ko’rish mumkin. Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va s’ort uchun yaratilgan mustahkam ‘oydevor asosida hozirda yosh avlodni ham ma’nan ham jismonan barkamol insonlar yetib tarbiyalash borasida oqilona say – harakatlar olib borilmoqda.

“O’zbekiston Res’ublikasi ‘rezidentining 2017 – yil 7 – fevraldagi “O’zbekiston Res’ublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan “2017 – 2021 – yillarda O’zbekiston Res’ublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi”ning to’rtinchi – “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustivor yo’nalishlari” qismining “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” bandida “Jismoniy sog’lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” vazifalari alohida ko’rsatib o’tilgan. Inson omilining jamiyatdagi salmog’i ko’p jihatdan intellektual resurslarga bog’liq.<sup>2</sup>

Ta’kidlash joizki, bu tizim, yurtimiz kelajagini ta’minlab beruvchi bunyodkor yoshlarni tarbiyalashga, jamiyat uchun turli sohalarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

O’zbekistonning mustaqilligi natijasida yuz bergan ijtimoiy va iqtisodiy o’zgarishlar ta’lim sohasida ham tub islohatlar o’tkazishni, ta’lim-tarbiyaviy ishlarni davr talablari darajasiga olib chiqishni taqazo etmoqda. Shu boisdan ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning "Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish ‘rinsi’lari" qismida ta’limning ijtimoiylashuvita’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat,

---

<sup>2</sup> Prezident Sh.Mirziyoyevning “2017–2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaror 30 dekabr 2016, 19:48 Jamiyat

ma'daniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish alohida qayd qilinadi. Ushbu huquqiy asos va uning amalga joriy etilishi ta'lim jarayonlarini sifat jihatidan yangi 'og'onaga ko'tardi, sohada jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.<sup>2</sup>

“Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs bo'lib yetishlari muhim vazifa sifatida belgilanadi. Hususan, mazkur hujjatning 11-moddasida ushbu masalaga quyidagicha yondashiladi: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda

o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi», bu esa maktabgacha ta'lim muassasasiga murakkab va ayni damda muhim vazifani yuklaydi.<sup>3</sup>

Xalqimizning buyuk mutafakkirlari Imom Al-Buxoriy, At-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy asarlarida sharqona ma'naviyat va komil insonni tarbiyalash muammolari o'z aksini to'gan.

Insonni ulug'lash, uning qadriga yetish, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularni kamolga yetkazish sohasida yetuk olimlarimiz bir qancha ishlarni amalga oshirmoqdalar. Bu borada o'zbek xalq pedagogikasining imkoniyatlari ham nihoyatda kattadir.

Mamlakatimizda jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish uchun aniq maqsadga qaratilgan keng ko'lamdagi kom'leks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar etish maqsadida 2014 yilni «Sog'lom bola» yili deb e'lon qilindi.

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi „Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. Toshkent. 1997y. Qonunning 11 moddasi

Bizni oldimizga qo'yilgan maqsad «Sog'lom bola yili» davlat dasturida belgilab qo'yilganidek, «bolalar tug'ilishi, ta'lim-tarbiyasi, oilada sog'lom muhitni, uning iqtisodiy va ma'naviy-ahloqiy asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy soha rivojiga ajratilayotgan mablag'lar samaradorligini oshirish bilan bog'liq barcha masalalarni» hal etishdan iborat.

Anomal bolalarning alohida o'ziga xos guruhi - bir nechta nuqsonlarga ega bo'lgan bolalardir. Ikki va undan ortiq rivojlanish nuqsoni o'zida nafaqat nuqsonlar jamlanmasini namoyon qiladi, balki sifat jihatidan o'ziga xos hisoblanadi va alohida tuzilishga egadir. Bunday bolalar alohida psixologik-pedagogik yondashuvni talab qiladilar va rivojlanishning maxsus sharoitlariga muhtojdirlar. Bugungi kunga kelib, maxsus ta'lim sohasidagi muhim muammolardan biri Mujassam nuqsonli bolalarga ta'lim va tarbiya beradigan muassasalarning yanada samarali sharoitlarini yaratish, izlashdan iboratdir.

Maxsus pedagogika bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilib, rivojlanishdan orqada qolgan bolalarni o'qitishning alohida as'ektlarini F.F. Rau, V.I. Belyutkov, E.I. Leongard, N.F. Slezina, B.A. Volkova, Y.F. Arxi'ovalar ishlab chiqqanlar deb xulosa qilishimiz mumkin.

psixo-analitik jihatdan differensial ta'lim tizimida muammoli shaxsiyatining individual rivojlanishi muammosini V.G.Ananyeva, V.V.Davidova, S.L.Rubinshteyn va boshqalar o'rganganlar.

Ta'lim olish qobiliyati diagnostikasi bilan S.D.Zabramnaya, B.V.Zeygarnik, O.N.Usanova va boshqalar shug'ullanganlar<sup>4</sup>.

Maktab o'quvchilarining psixologik-pedagogik orientatsiyasi muammosi bilan L.V.Shibaeva, D.B.Elkonin, I.S.Yakimonska, N.F.Talizina va boshqalarning asarlarida tanishishimiz mumkin.

Tadqiqotning maqsadi: Mujassam nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish xususiyatlarini o'rganish.

---

<sup>4</sup>D.Zabramnaya „Психолого-педагогическая диагностика умственного развития детей: учебник для студентов дефектологических факультетов педвузов и университетов” М. Просвещение, Владос. 1995г.

Tadqiqot ob'yekti: Mujassam nuqsonli bolalarda olib boriladigan korreksion ishlar xususiyati.

Tadqiqot predmeti: Mujassam nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar jarayoni.

Ishning maqsadi bir qator vazifalarni belgilab beradi:

1. Berilgan mavzu bo'yicha psixologik-pedagogik va tibbiy adabiyotlarni o'rganish;
2. Aqli zaif, BSF bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiya qilish va ularni o'qitish imkoniyatlarini o'rganish;
3. Ishdagi korreksion-rivojlantiruvchi yo'nalishning xususiyatlarini inobatga olib, bunday bolalarga korreksion ta'sirni amalga oshirish metod va uslublarini ishlab chiqish;
4. Murakkab nuqsonli kichik maktab yoshdagi bolalarni o'qitishda qo'llaniluvchi metod va usullarning samaradorligini tekshirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari: Ta'lim-tarbiyaga oid davlat hujjatlari, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev asarlari, «Ta'lim to'g'risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash» milliy dasturi, «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonuni, «Sog'lom bola yili» dasturi, Xalq pedagogikasi, psixologiyasi va defektologiyada shu yo'nalishda yoritilgan ishlar metodologik asosni tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari:

- Mavzuga oid psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili;
- Mujassam nuqsonli bolalar hujjatlarini o'rganish;
- Defektologlarning ish tajribalarini o'rganish.

## **I-Bob. Mujassam nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning ilmiy-nazariy asoslari.**

### **1.1 Muammoning o'rganilganlik xolati.**

Korreksion ish haqidagi ilk fikrlar Eduard Segenga tegishlidir. Aqli zaif bolalar bilan olib borgan davolovchi va pedagogik faoliyati davomida u jismoniy va ma'naviy tarbiya vositasi sifatida qo'l mehnatini targ'ibot qiladi va keng ishlatiladi.

Tibbiyot hodimi sifatida E.Segen mehnatning harakat a'zolarining jismoniy shug'ullanishidagi ahamiyatini yaxshi anglagan. Muskullarni mashq qildirish orqali u o'zining uy hayvonlarining asab tizimi va psixikasini mukammallashtirishga harakat qilgan. U jismoniy mehnatning sodda shakli bilan bolaning sog'lig'i mustahkamlanishini va uning ma'naviy tuyg'ulari uyg'onishini ta'kidlaydi.

Huddi shu ruhda yana bir oligofreno'edagagika dohosi- J.Demor o'z fikrlarini qoldirgan. Aqli zaiflarni o'qitishdagi verbalizmni rad etgan holda, u murakkab grammatik va arifmetik materialni o'rganishga yo'l qo'ymaslikni maslahat beradi. Bunday murakkab bilimlarni ular hayotlarida umuman qo'llamaydilar deydi.

Uning fikricha, mantiqiy tafakkurni qo'l mehnati orqali yaxshiroq o'stirish mumkin. Qo'l mehnati bolalarning tashabbusini uyg'atadi, ish jarayonida miyani tarang tortiradi va irodaning shakllanishiga hissa qo'shadi.

E.Segen va J.Demorning nuqtai nazari to'g'ri. Bu fikr o'sha davrda hukm surgan sensualizm g'oyalariga asoslangan. Sensualizm g'oyasining ta'kidlashicha, dunyoni faqat sezgi organlarimiz orqali idrak qila olamiz, insonning ruhiy hayoti uning sezgi organlari bilan qabul qilingan dunyo haqidagi tasavvurlariga bog'liqdir.

E.Segen va J.Demor yashagan davr uchun (XVIII asr oxiri - XIX asr boshlari), ularning qarashlari pedagogikada o'sishni yuzaga keltirgan. Ular o'sha davrda hukmron bo'lgan ta'limda verbalizm g'oyasini rad etib,

mehnat orqali inson jamiyatning teng huquqli a'zosiga aylanishini ta'kidlaganlar.

Ularning qarashlari to'g'ri bo'lsada, to'liq deb bo'lmaydi. Ma'naviy sifatida va aqliy rivojlanish mehnat faoliyatining avtomatik natijasi hisoblanmaydi. Ularga mehnatni tashkil qilishning ma'lum sharoitlaridagina erishish mumkin.

Sezgi organlaridagi nuqsonlarni korreksiya qilish uchun birinchi mashqlar tizimini Jan Vaney yaratgan. Bu mashqlar bolalar tomonidan ta'limning ilk yilidan boshlab bajarilgan. Ular atrofimizdagi buyumlar bilan tanishishga va ularni shakli, hajmi rangiga ko'ra ajratishga asoslangan. Bu orqali ularning analizatarlari faoliyati yaxshilanib borgan.

J.Vaney tomonidan ishlab chiqilgan mashqlar tizimini M.Montesori mukammallashtirdi va undan aqli zaif bolalarning kamchiliklarini korreksiyalashda faydalandi. Bu tizim «sensomotor madaniyat va psixik orto'ediya teoreyasi» deb nomlangan edi.

M.Montesori tizimida E.Segen va J.Demor tomonidan rivojlanish vositasi sifatida taklif qilingan qo'l mehnati past darajada tekshirildi. U oligofrena'edagogikada sensualizmni chuqurlashtiradi, bolaning rivojlanishida ta'limning yetakchi ro'lini inkor etadi va psixik kuchlarning o'z-o'zidan rivojlanishi haqidagi idealistik tushunchani ilgari suradi.

Vaqt o'tishi bilan nota'lim materiallarga asoslangan formal mashqlar tizimi yordamchi maktabda o'qitishda ehtiyojlarni qondira olmay qoldi. Bu O.Dekrolini sensor madaniyat tizimini mukammallashtirishga undadi. Yangi variantda muallif bolani rivojlantirish ishini uch bosqichga bo'ladi: kuzatuvchanlik, assatsatsiya va ifodalash. Kuzatuvchanlikni shakllantirish asosan M.Montesori ishlariga mos keladi, bunda ish sensor bilish organlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Tafakkur assatsatsiyasini shakllantirish umumta'lim fanlarni o'rgatish orqali amalga oshadi.



Faoliyatni shakllanishiga esa nutq, kuylash, chizish, qo'l mehnati, harakat yordamida erishiladi.

O.Dekroli tizimi ham M.Montesori tizimi kabi mavjud psixik sifatlarni rivojlantirish fikrini ilgari suradi. Lekin M.Montesoridan farqli ravishda O.Dekroli jismoniy mehnatga muhim o'rin beradi, ammo unga aqliy rivojlanish va ma'naviy sifatlarni shakllantirish vositasi sifatida qaramaydi. Uning fikricha, mehnat boshqa fanlar singari imkoniyatlarning o'z-o'zidan rivojlanishining yumshatuvchi shartdir.

Korreksion ta'sirning o'ziga xos tizimini rus oligofreno'edagogi Aleksey Graborov yaratgan. U J.Vaney va O.Dekroli qarashlarini birlashtiradi va xotirani rivojlantirish, tafakkurni o'stirish va madaniy xulq-atvorni shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini o'z ichiga oladi. A.Graborov sensor madaniyatni rivojlantirishga ijtimoiy ahamiyatli faoliyat: o'yin, qo'l mehnati, predmetli darslar, tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalar yordamida erishiladi.

A.Graborov ham G'arbiyYevro'a defektologlarining ayrim hatolarni takrorlaydi va alohida mashg'lotlar yordamida bilish jarayonlarini korreksiya qilishni taklif qiladi.

Aqli zaif bolalarning nuqsonlarning tub mohiyati va ularni bartaraf etish yo'llari haqida 'aul Moor aytib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, chuqur aqli zaif bolalarning psixik o'ziga xosliklari debil bolalarda ham mavjud.Aqli zaiflikning bu ikki darajasi orasidagi farq faqat miqdoriy (ya'ni aqliy nuqsonning darajasiga qarab) dir.

Aqli zaiflikning mohiyati haqidagi bu tushunchadan kelib chiqib, 'Moor aytadiki, aqli zaif bolalarda intellektual faoliyatining uyg'onishi, bu esa ularga o'quv dasturini o'zlashtirishga halaqit beradi, ayniqsa bu hayotiy faoliyatlariga bog'liq bo'lmay, ularda hech qanday qiziqish uyg'otmasa bu yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Shuningdek, yordamchi maktab o'quvchilarida tashqi bosimsiz o'quv faoliyatiga yo'nalganlik kuzatilmaydi.

‘.Moorning fikricha, bolalar o’quv materialini egallay olmaydilar, chunki ularda mantiqiy eslab qolish rivojlanmay va rivojlantirish imkonsiz. Ta’lim jarayonida faqatgina mexanik xotiraga tayanib bo’lmagani uchun, ularning bilimi mantiqsiz yoki ular buni hayotlarida qo’llay olmaydilar.

‘.Moorning fikricha, bolalarda motorika va nutqiy muloqot yaxshiroq saqlangan bo’ladi. Shuning uchun u bolalarni mehnatga yaroqli deb to’di. Bolalarga butun umr hamrohlik qiladigan asosiy jihat – bu ichki tajribaning sekin va qiyinlik bilan to’lanib borishidir.

Agar aqli zaif bola unga tabiat tomonidan berilgan darajadan ko’tarila olsa, unga hayot qo’yadigan talablarga javob bera olsa, bunga faqatgina o’zining tarbiyaliligi bilan erishishi mumkin. Bu xususiyat tufayli, agar bola yaxshi sharoitga tushsa, u tarbiyali bo’lishi mumkin. Shu tarzda ‘.Moor aqli zaif bola tarbiya qilinadi, ammo o’qitilmaydi, o’qitish imkonsiz degan xulosaga keladi. Yordamchi maktabda tarbiyadan maqsadni u o’quvchilarda to’g’ri xulq-atvorni shakllantirishda ko’rdi. Tarbiyalilikning mohiyati bolaga tabiiy ehtiyojlari qondirilishini shart-sharoitlarini inobatga olib, sabr bilan kutishni o’rgatishdan iborat.

‘.Moorning xulosasiga ko’ra, korreksion ishning mohiyati – bolani o’z-o’zini boshqarishga va u bo’ysunuvchi odamlarga itoat qilishga o’rgatishdan iborat. ‘.Moor teoriyasidagi kamchilik yana shunda ko’rinadiki, u ta’lim va tarbiyani o’zaro ajratib ularga alohida-alohida, mustaqil tomonlar sifatida qaraydi.

Aqli zaiflik mohiyati va korreksion ishlar haqida ‘rogressiv fransuz psixologlar guruhining juda qiziqarli fikrlari bor. Bu psixologlar guruhiga Rene Zazzo boshchilik qilgan. Ularning qarashlarini quyidagilarda ko’rish mumkin:

a) «Aqli zaiflik» terminini ko’plikda ishlatish kerak. Chunki faqatgina ko’plik shaklidagi aniqlashgina ortda qolishning turli xil turlarini o’z ichiga olishi mumkin: vaqtinchalik rivojlanishdan orqada qolayotgan bolalardan boshlab, juda chuqur shakldagi ortda qoluvchilargacha;

b) Aqli zaiflikning o'ziga xos xususiyati geteroxroniyadir, ya'ni ularning psixikasi va shaxsiyatining turli jabhalarining turlicha rivojlanishi;

d) Aqli zaif bolalarning ijtimoiy va mehnat ada'tatsiyasi faqatgina ularning intellekti va bilim holatining darajasiga bog'liq bo'lmay, balki psixomotorika va hissiy-irodaviy sohasining saqlanganligiga ham bog'liqdir. Ular aqli zaiflikning «intelektual konse'siyasi»ga qarshi turadilar va ularning shaxsiyatidagi saqlangan tomonlarning roli ahamiyatli ekanligini va ularni to'g'ri boshqarish va to'g'ri tayyorlash aqli zaif bolalarga hayotda o'z o'nmlarini to'ishlariga imkon berishini ta'kidlaydilar.

Agar aqli zaif yoshlar zamonaviylik, tarix, geografiya, iqtisod muammolariga qiziqish bildirsalar, ularning bu ehtiyojini ular bilan ta'lim-tarbiya jarayoni orqali qondirish kerak. Boshqacha aytganda, ular bilan olib boriladigan korreksion ish an'anaviy o'qitish asosida tashkil qilinmasligi kerak. Aksincha, bu yoshlarning talabiga javob beradigan boshqacharoq sifatlil ta'lim shakllarini izlash kerak.

Aqli zaiflik nuqsonining mohiyati va korreksion ishlar haqidagi aytilgan fikrlar L.S.Vigotskiyning ijtimoiy tarbiyaga oid qarashlariga juda yaqindir.

Yordamchi ta'limga korreksiya xosdir. Korreksiyasiz yordamchi maktabni tasavvur etib bo'lmaydi. Korreksiya rivojlanish bilan aloqadordir. Shuning uchun korreksiyaning mohiyatini rivojlanish fonida ko'rib chiqish kerak.

Bolaning psixik rivojlanishi – bu o'z-o'zidan yuz beradigan jarayon bo'lmay, atrofdagi vositalarning faoliyatini natijasidir.

Rivojlanishning har bir bosqichi o'zidan avvalgisiga bog'liq bo'lgan yagona jarayon sifatida qaralgan. L.S.Vigotskiy birlamchi va ikkilamchi nuqsonni ajratib olish zarurligini aytadi. Uning fikricha barcha asosiy belgilarni orqada qolish belgisidan kelib chiqadi, deb xulosa qilish noto'g'ri. Bunday yondashuv rivojlanish jarayonini inkor etish bilan barobar.

L.S.Vigotskiy aqli zaif bolaning psixikasining rivojlanishini baholashda nuqsonning 2 turini ko'rsatadi: aqli zaiflikning birlamchi belgilari va birlamchi belgiasosida kelib chiquvchi ikkilamchi belgilari.<sup>5</sup>

Birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni ajrata bilish juda muhim ahamiyatga ega. Chunki ikkilamchi nuqsonni tibbiy-'edagogik ta'sir natijasida to'g'irlash mumkin. Oligofreniya va psixo'atiyadagi ikkilamchi nuqson hisoblanuvchi oliy psixik funksiyalarning rivojlanmaganligi kamroq turg'undir.

«Birlamchi nuqsondan ikkilamchi nuqson qanchalik farq qilsa, u shunchalik davolash tarbiyaviy jarayonga bo'y beradi».L.S.Vigotskiy kelgan muhim xulosalaridan biri shuki, korreksion ishda e'tiborni iloji boricha ertaroq boshlash mumkin bo'lgan amaliyotga qaratish kerak.Korreksiyani bolani faol faoliyatiga jalb etgan holda amalga oshirish kerak. Bu faoliyat davomida bola shakllanadi, uning psixik sifatlari va psixik holati rivojlanadi. Tashqi predmetli faoliyat shaxs xususiyatlarining hosil qilinishi va shakllanishida o'zgarish kiritish uchun hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, shaxs xususiyatlarini hosil qilish uchun o'zgarishlarni kiritishda faoliyatning ahamiyati shunchalik muhimki, tarbiyachining bolaga bilim va ahloqiy normalarni singdirishga qaratilgan istalgan harakati bolani sog'lom, aqliy va ahloqiy rivojlanishi hamda uning shaxs xususiyatlarini tarbiyalashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Faol faoliyat bolani atrofdagi olam bilan yuzlashtiradi.Tabiat, odamlar kabi elementlar esa bolani rivojlanish vositalari hisoblanadi. Bu vositalarning o'zi ham o'zgaradi va yangi yosh bosqichida bolaning rivojlanishiga yangicha ta'sir qiladi.

O'yin, o'qish, mehnat kabi kunlik faoliyatlar jarayonida bola yaxshi yoki yomon o'ylovchi bola sifatida o'zini namoyon qilibgina qolmay, balki o'z omad va omadsizliklarini his qiladi, hursand bo'ladi yoki achchiqlanadi, kam yoki ko'p iroda sifatlarini namoyon qiladi, maqsad sari intiladi. O'z-o'zidan bunday

---

<sup>5</sup> L.S.Vigotskiy «Собрание сочинений» М. 1983г. т.5.

turli faoliyatlar jarayonida hamma bolalar qatori aqli zaif bolalar ham shaxsiyat deb ataluvchi psixik sifatlarni namoyon qiladilar. Bu xususiyatlar esa bilishjarayonlarining asta-sekinlik bilan to'ralishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Aqli normada bo'lgan bolalar bilan aqli zaiflarni solishtirganda faqatgina ularning intellekti yoki affekti orasida farqni ko'rish kerak emas. Balki, rivojlanishning turli darajalarida bo'lgan psixikaning bu ikki tomoni o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olish kerak.

Aqli zaif bolalarda bilish faoliyatining oliy shakllarini yaxshi rivojlanmaganligi fikrlashning yuzakiligi, nutqni sekin rivojlanishi va sifat jihatdan o'ziga xosligi, xatti-harakatini so'z orqali nazorat qilishni izdan chiqarishi hissiy-irodaviy sohani to'laqonli emasligi kuzatiladi.<sup>6</sup> Bu fikrlarni A.N.Graborov yoqladi va rivojlantirdi. Aqli zaif bolaning umumta'lim maktabida ta'lim olishi uning holatini yaxshilamaydi, aksincha yanada yomonlashtiradi. Bu yerda bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi so'nadi, jamoadan ajralgan holda asta-sekin bor imkoniyatlarini ham yoqota boradi. A.N.Graborov yordamchi ta'limni korreksion ta'lim deb to'adi. Uning fikricha, aqli zaif bolalar bilan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar sharoitida o'tkaziladigan korreksion tadbirlar tizimini yo'lga qo'yish orqali ularning nuqsonini yumshatishga erishish mumkin. A.N.Graborov tarbiyaning asosiy vazifasi sifatida tarbiyalanayotgan bolani har tomonlama rivojlanishi va uning shaxsiyatining namoyon bo'lishini ko'radi. Shuning uchun tarbiya jarayonidagi har bir ish kom'ensator-korreksion harakterga ega bo'lishi kerak. A.N.Graborovning ta'kidlashicha, korreksion-tarbiyaviy ish o'z ichiga sog'lomlashtirishini, o'quvchiga individualyondashishni, o'quv materialining tuzilishi jihatdan sodda bo'lishini, ko'rgazmalilikni va mehnatni olishi kerak. Bu tadbirlarning amalga oshirilishini – aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan ishlarning asosi bo'lib xizmat qiladi.

---

<sup>6</sup> M.Y. Ayupova «Logopediya» Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. II nashr 2011y.

G.M.Dulnev ham korreksiyaning yordamchi maktab ta'limining o'ziga xos xususiyati deb to'adi. Uning aytishicha, aqli zaif o'quvchilarning rivojlanishiga ta'lim-tarbiya jarayonining korreksion ta'siri bolalarda oliy psixik jarayonlar, mantiqiy fikrlash, mehnat faoliyati, 'redmat-amaliy faoliyati motiv va sabablarini shakllantirishga yo'naltirilgandagina samaralidir. Korreksion-tarbiyaviy ta'lim ostida aqli zaif bolaning rivojlanishi yuqoridan pastga tushgandek boradi: Mujassam nuqsonlarni to'g'irlashdan boshlanib, (ya'ni unda keyinroq shakllanadigan psixik jarayon bo'lmish- mantiqiy fikrlashdan boshlanib) keyinchalik psixik jarayonlarning boshqa shakllaridagi yetishmovchiliklarni rivojlantiriladi.

G.M.Dulnev bolalar tomonidan o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan mantiqqa asoslangan mashg'ulotlardagina korreksiyaning amalga oshirish mumkin deb ta'kidlaydi.

Korreksion-tarbiyaviy ishda u mehnat ta'limiga katta ahamiyat beradi va unga bir qator psixologo-didaktik talablarni qo'yadi:

- a) Mehnat ta'limining o'quvchilarning ma'naviy shaxsiy sifatlarini shakllantirishga maqsadli yo'naltirilganligi;
- b) Mehnat ta'limi jarayonida aqli zaif o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga doimiy e'tibor qaratish;
- c) Bolalarda ijtimoiy harakterdagi, bolalar tomonidan oson o'zlashtiriluvchi ishlab chiqarish bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va mustahkamlash.

G.M.Dulnev mehnat ta'limida o'quvchilarga differensial yondashuvning zarurligini ko'rsatadi (ya'ni o'quvchining nuqson tuzilishi, uning imkoniyatlarining rivojlanish tem'ini (u yoki bu soha, kasbga oid) hisobga olish kerak). Shuning uchun yordamchi maktabda korreksion ishlarni amalga oshirish uchun aqli zaif bolalarning imkoniyatlarini o'rganish va uning faolligini oshiruvchi ta'lim-tarbiyaning o'timal shartlarini hisobga olish zarur.<sup>7</sup>

---

<sup>7</sup> V.G.Petrova, I.V.Belevkova «Психология умственно отсталых школьников» М.2004г.

Korreksion ish o'quvchilarning ham aqliy, ham estetik tarbiyasini qamrab oladi. Bu esa ham ta'lim jarayonida, ham ijtimoiy hulq normalarini shakllantirish, jamiyatda insonlararo munosabatlarni tushuntirish, ularning mehnatga, Vatanga, o'z majburiyatlariga to'g'ri munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan mehnat jarayonida amalga oshiriladi.

Bolaning jismoniy rivojlanishi, uning salomatligini mustahakamlash va harakat sohasini rivojlantirishga qaratilgan davolash-sog'lomlashtirish tizimi korreksion-tarbiyaviy ishning bir qismi hisoblanadi va jismoniy tarbiya, kun tartibi, jismoniy mehnat darslarida amalga oshiriladi. Korreksion ish – bu aqli zaif bolaning psixik jarayonlarini yaxshilashga qaratilgan alohida ajratib olingan mashqlar emas, balki yordamchi maktabdagi barcha ta'limiy-tarbiyaviy ishlar jarayoni davomida amalga oshiriluvchi vositalar tizimidir

Korreksion ta'sir ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchisi – shaxsni rivojlantirishga aloqador barcha savollarga tegishli o'quv materialining alohida o'ziga xos berilishi: bilimlarni egallash, ko'nikma va xulq-atvorning shakllanishi, o'quvchilarning mehnatga tayyorlanishi va uni amalga oshirilishi. Bunda korreksion ta'sir ta'lim-tarbiyaning o'zida amalga oshiriladi va intellektual va nutqiy yetishmovchilikni bartaraf etish, ijtimoiy nuqsonlarning namoyon bo'lishini kamaytirish, predmet-amaliy va bilish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini tekislashga yo'naltiriladi. Korreksiya va rivojlanish mos keladi-o'quvchilarning psixojismoniy o'ziga xosliklarining pasayishi ularning psixik rivojlanishini tezlashtiradi, shaxs xususiyatlarini shakllantiradi.

Ikkinchi yo'nalish maxsus faoliyatni o'z ichiga oladi: logopedik mashg'ulotlar, psixo-tera'vtik ta'sir, sog'lomlashtirish tadbirlari va davolash.

Yordamchi maktab korreksion ta'limining asosiy ko'rsatkichi – bu o'quvchilarning mustaqilligi va intellektual faolligining o'sishi, maqsad sari intilishining va mehnat layoqatining ta'lim va faoliyatlarida ortishidir.

Oligofreno'edagogikaning asosiy adabiyot manbalarini tashkil qilish yordamchi maktabga qo'yiladigan korreksion vazifalarni ko'rsatadi. Ular o'quvchilarning mehnatga tayyorgarligi va mehnat layoqatini oshirishga; o'quv

va mehnat faoliyati motivlarini kuchaytirishga; yordamchi ta'limning metodik va tashkiliy shakllarini yaxshilashga, o'quvchilarning bilim imkoniyatlariga mos ravishda ularning ta'lim va tarbiyasiga o'timal shartlarini belgilash uchun defektolog va shifokorlar urinishlarini koordinnatsiyalashga yo'naltirilgan.

L.S. Vigotskiy organik nuqson bolaning ijtimoiy nonormal xulqiga aylanishi va bu xulq-atvor uning atrof-muhit va ijtimoiy vositalar bilan o'zaro aloqasida namoyon bo'lishini ta'kidlab, bolaning nuqsoniga ijtimoiy tus beradi va tarixda ilk marotaba yordamchi maktab oldiga ijtimoiy kom'ensatsiya vazifasini qo'yadi<sup>15</sup>.

Kom'ensatsiyani organik va psixik ravishda amalga oshirish mumkin. psixologiyaga «kom'ensatsiya» atamasini ilk bor 1906 –yil G.Anton kiritgan. O'zining «miya kasalligida funksiyalarning almashtirilishi» maqolasida «psixik o'zini-o'zi to'g'irlash» teoriyasini ilgari suradi.

I.'avlov kom'ensatsiyaning muhim belgisini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, asab tizimining 'lastikligi uning yuqori darajada o'z-o'zini to'g'irlab, qayta tiklovchi va mukammallashtiruvchi qiladi. Hech narsa shundayligicha qolmaydi deb hisoblaydi. Har doim hamma narsaga erishsa, vaziyatni yaxshi tomonga o'zgartirish mumkin. Faqat kerakli sharoitlarni to'a olinsa bo'lgani. I.'avlov asarlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ayrim g'arb mualliflari ta'kidlaganlaridek, ko'rsatmali avtomatik usullar natijasida emas, balki tizimli qayta tiklash ta'limi yordamida kom'ensatsiya natija berishi mumkin.

Anomal bolalarning nuqsonini kom'ensatsiyalash masalasida o'ziga xos rivojlanish jarayonini tushunish talab etiladi. Uning yordamida yangi dinamik tizimlarni shakllantirish buzilgan yoki rivojlanmay qolgan funksiyalarni qayta tiklash, ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va usullarini shakllantirish, bolalar shaxsiyatini rivojlantirish mumkin.

Normadan orqada qolishning o'ziga xos xususiyatlari faqatgina nuqson harakteriga emas, balki nuqson yuzaga kelgan yoshga ham bog'liqdir. Masalan, aynan bir xil nuqson bolada ham, katta odamda ham yuzaga kelsa, uning



oqibatlari turlicha bo'ladi. Erta yoshdagi nuqson murakkabroq tuzilishga va buzilgan faoliyatlar sturukturasiga ega bo'ladi. Korreksiya va kom'ensatsiya shunga bog'liq.

Anomal bolalar psixik rivojlanishning o'ziga xos yo'lini bosib o'tadi. Maxsus tashkil etilgan ta'lim – tarbiyani egallash bilan funksional tizimlar, ijtimoiy

tajribaga ega bo'lishning usul va vositalari shakllanadi. Bolalar organizmi yuqori darajadagi 'lastiklikka va qayishuvchanlikka ega, o'z funksiyalarni rivojlantirish imkoniga ega. Bu imkoniyatlarni baholab, faqatgina funksional tizimlarni shakllantirishni emas, balki L.S.Vigotskiy aytganidek, yaqin rivojlanish zonasini inobatga olish kerak. Agar ish to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, markaziy asab tizimining shakllanayotgan funksiyalari kom'ensator qayta qurishda muhim ro'l o'ynashi va psixik rivojlanish tem'ini tezlashtiradi, bilish jarayonlarini sifatli holatga olib borish mumkin. Boshqa tarafdin olganda, ular ikkilamchi nuqsonlarning yo'lga to'g'anoq bo'ladi.

Kom'ensatsiya asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich rivojlanadi.Unga dinamika xosdir.Unga o'zgarishlar kiritishning muhim faktori – tashkiliy ta'limdir. Bolaning ta'lim jarayonida rivojlanishi va oliy bilish faoliyatlarining (sensor kom'onentlar orqali qabul qilinadigan) shakllanishi orqa 'langa o'tadi va tahliliy kuzatuv, umumlashgan idrok, tafakkur, nutq kengroq qo'llaniladi.

Ga' aqli zaif bolalarning kom'ensatsiyasi haqida ketar ekan, ularda oliy psixik jarayonlar qiyin rivojlanishini unutmaslik kerak.Bu rivojlanishning normada kechishiga halaqit beradi.

Bu holatda ijobiy o'zgarishlar haqida ga'irish mumkin, lekin bu ma'lum doirada amalga oshadi. Bu chegaralar absolyut emas, ta'lim jarayoni va rivojlanish shart-sharoitlariga bog'liq.

Korreksiya qilishda maxsus tashkil qilingan ta'lim va tarbiya berish yo'li bilan sezilarli muvoffaqqiyatlarga erishish mumkin. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, nuqson buzilishini hosil qiluvchi aqli zaiflikning borligi ontogenezdin miya boshqaruvida bo'ladi, sog'lom miya tuzilmalariga ma'lum

darajada bog'liq bo'ladi. Shuningdek, nuqson tuzilmasiga yangi hosil bo'luvchi funksiyalar ta'sir ko'rsatadi. Bu amaliyot shuni bildiradiki, bolaning bilish jarayonlariga tayanish bilan pedagogik korreksiyaning amalga oshirish mumkin ekan.

Uning eng muhim xususiyatlari:

a) Tarbiya qiluvchi funksiyasi. Korreksiya jarayonida tarbiya 2 yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchisi, rivojlanishdagi shaxsiy orqada qolishni bartaraf etish texnikasiga oiddir. Bunda ko'p marta takrorlanuvchi amaliy mashqlardan foydalanadi. Ikkinchi yo'nalish shaxs shakllanishida yangi sifatlarni vujudga keltirishga qaratilgan.

Bu sifatlarning quyidagilar: hayoliy o'rnatishlarni rivojlantirish, tafakkur shakllarini rivojlantirish, analiz-sintez, abstraksiya, umumlashtirish, klassifikatsiya, tushunish, muhokama qilish va boshqalar.

b) Tizimlilik. Bu alohida tadbirlarning ta'siri davomlilik va o'zaro aloqadorligida namoyon bo'ladi. Bunda maqsad alohida nuqsonning o'ziga emas, balki shaxsga to'liqligicha ta'sir ko'rsatishdir. Boladagi rivojlanishning birorta nuqsoni boshqa nuqsonlar bilan bog'liq emasligini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun boshqalari bilan aloqasi bo'lmagan hech bir korreksion vosita kutilgan natijani bermaydi. Bolaga korreksion ta'sir ko'rsatishning uzoq muddatga mo'ljallangan va butun boshli shaxsiyatga ta'sir ko'rsatadigan tizimi rejimga qat'iy amal qilish (oilada va maktabda) kabi pedagogik va tibbiy ta'sirlar birligini o'z ichiga oladi.

c) Korreksion ishni ochiq tizimga aylantirish. Bu bolani maktabga va maktabdan tashqarida keng ijtimoiy munosabatlarga tortish, maktabdan tashqaridagi tengdoshlari va o'zidan kattalar bilan muloqotga kirishish, bolaning oiladagi o'rnini kengaytirish va ijtimoiy muhitdagi zaruriy xulq-atvor formalarini o'zlashtirishni bildiradi.

## **1.2 Ta'lim – anomal bolaning korreksiyasi va rivojlanishida muhim vosita sifatida.**

Maxsus korreksion ta'lim muassasalarida olib boriladigan korreksion ishlar vositalari turlichadir. Ulardan ko'proq amalga oshiriladigani quyidagilar:

- Ta'lim,
- Mehnat faoliyati,
- O'yin faoliyati,
- Ijtimoiy foydali faoliyati,
- Davolash-sog'lomlashtirish faoliyati.

Anomal bolalarning korreksiyasi va rivojlanishining alohida masalalari yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar ta'limning oligofren bolalar bilish jarayonlaridagi kamchiliklarini korreksiyalashdagi yetakchi ahamiyatini isbotladi. «Aqli zaif bolalarni o'qitish korreksion-tarbiyaviy harakterga ega bo'lishi kerak»(J.I.Shif). Bu bilim berishning umumiy jarayonida o'sib boruvchi faol o'zlashtirish va bir vaqtning o'zida korreksion ta'sirni ta'minlashni talab etadi. Faqat shu yo'l bilangina intellekt nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni jamiyatdagi mustaqil hayotga tayyorlashda ta'lim hal qiluvchi vositaga aylanadi.

O'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatlarini tashkil qilib va boshqarib ularga nafaqat bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, balki bilish jarayonlarini (diqqat, kuzatuvchanlik, idrok, xotira, nutq, tafakkur) shakllantirishga yordam beradi. Bilishga qiziqish, irodalilik, mehnatga yaroqlilik kabi hissiy-irodaviy hislarni ham rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida shaxsni tarbiyalash ham amalga oshiriladi (o'quvchilarda

salbiy fazilatlar bilan kurashishga intilish, foydali ijtimoiy mehnatga tayyorgarlikni tarbiyalaydi). Ta'lim va tarbiya shu tarzda shaxsni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim va rivojlanish orasidagi o'zaro munosabatda o'quvchilarning psixofizik rivojlanishi (kuzatuvchanlikni oshirish, dunyoqarashini kengaytirish,

fikrlashga o'rgatish)ga ko'rsatiladigan tizimli va rejali korreksion ta'sir uchun katta imkoniyatlar bor. Bolalarga buyumlar bilan o'ynash, topshiriqlarni yechish yoki javobni to'ishga imkoniyat bersa, yechim ta'lim o'z vazifasini bajaradi.

Bolalarga predmetlar bilan harakatlanish, o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berish, topshiriqlarni bajarish, ekskursiya, kuzatuvlar, amaliy ishlar orqali yechimni to'ish imkoniyati berilsa, ta'lim o'ziga yuklatilgan vazifani bajaradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar nuqsonini korreksiya qilish o'quv jarayonini amalga oshirish orqali avtomatik tarzda ro'y bermaydi. Bunga ma'lum talablarga rioya qilgan holda erishish mumkin:

a) O'quv material va o'quvchilarning bilish imkoniyatlarining o'zaro mos kelishi. Bu moslik yordamchi maktab tarbiyalanuvchilarining bilish imkoniyatlarining past darajada rivojlanishiga to'g'irlanadi va 2 yo'nalishda amalga oshadi. Birinchi yo'nalish o'quv materialining hajmi, murakkabligi va tuzilishiga aloqador. O'quv materialining hajmi o'quvchilarning maksimal yuklamasini ta'minlaydi, himoya tormozlanish holatiga tushirib qo'yishdan asraydi.

O'quv faoliyat va amaliy mashg'ulotlar tuzilishi oddiy, umumlashish darajasi esa past: murakkab tushunchalarni o'zlashtirishni ko'zda tutmaydi; faktlar miqdori cheklangan, faoliyat uncha ko'p bo'lmagan va sodda aqliy o'ratsiyalarni o'z ichiga oladi. Birmuncha murakkab tushunchalar qismlarga ajratiladi va alohida o'rganiladi.

Shu tarzda, hajm, murakkablik, umumlashtirish darajasi, o'rgatish usuli – bularning hammasi murakkab shakldagi psixik jarayonlari rivojlanmagan o'quvchilarga mo'ljallangan.

Ikkinchi yo'nalish o'quv tarkibini moslashtirish bo'lib, o'quvchilarning bilish imkoniyatlari darajasini oshirishdan iborat. Bunga 'ro'edevtik mashg'ulotlar orqali erishiladi.

b) Ta'limdagi takroriylik. Aqli zaif o'quvchilarning o'ziga xos xususiyati ularning qiziquvchanliklarining chegaralanganligi, yangilikni idrok

qilishning zaifligi, ma'lumotni qabul qilishdagi 'roduktivlikning pastligi va tez xotiradan ko'tarilishi. Bu xususiyatlarga korrekktiv kiritish yangi materialni bir necha

marotaba takrorlash (tushuntirish, ko'rsatish, birgalikda bajarish) va o'zlashtirilgan materiallarni tez-tez qaytarib turish bilan amalga oshiriladi. Yangi bilimlarni o'zlashtirish va shu mavzuni mustahkamlash davomida takrorlash bajariladi. Bunda noto'g'ri o'zlashtirilgan ko'nikmalar ham yo'l-yo'lakay to'g'irlab boriladi. Takrorlash yordamida alohida faktlar, tushuncha va munozaralar tizimiga kiritiladi (o'quvchilar tomonidan turli vaqtlarda o'zlashtirilgan bo'lishiga qaramay). Takrorlashning asosiy vazifasi – unutishni kamaytirish, o'quvchilar tomonidan uzoq vaqt yodda tutish kerak bo'lgan asosiy tushunchalarni bitta tizimga solish. Lekin tez-tez va doimiy ravishda bir narsani takrorlayverish ijobiy tomonlaridan tashqari salbiy jihatlarini ham namoyon qiladi. Ya'ni qiziqish va faollik susayadi. Takrorlashning bu kamchiligini pasaytirishga takrorlash shakllarini turli xil qilish bilan erishiladi.

c) Mashq qilish. O'quvchlarni faoliyatga jalb etishning mohiyati qiyinchilik va to'siqlarni bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Bunda korreksion natijaga topshiriqni yechish mobaynida o'quvchilarga mustaqil bo'lishga imkon berish, harakatlanishdagi qaramlikni cheklash orqali erishiladi. Erishilingan kom'ensatsiya vaqtida aniqlansa, mashq qilish muvaffaqiyatli bo'ladi. Masalan, agar zaruriy sensor bazaga yetishilagan va o'quvchilar zaruriy faoliyatni amalga oshirish uchun zaruriy usullarni egallagan bo'lsalar, darhol aqliy o'eratsiyalarga bosim berishga o'tish kerak.

d) Ta'lim sur'atining sekinligi. Uning zaruriy nerv jarayonlari harakatchanligining chegaralanganligi va shuning uchun bilish faoliyati sekin sur'atda kechishiga asoslanadi. Shuning uchun ta'lim ham sekinlashgan sur'atda amalga oshiriladi: bilimlarni o'zlashtirish sekin ro'y beradi, predmetlarni demonstratsiya qilish vaqti ko'payadi, ko'rgazmali vositalarni ko'rib chiqish ko'proq vaqtni oladi, berilgan savollarga va amaliy topshiriqqa javobni o'ylashga ko'proq vaqt beriladi. O'quv sur'atining sekinlashishi – yangi

bilimlarni ongli ravishda egallash va o'quvchilardagi rivojlanishdan orqada qolishni korreksiyalashning zaruriy sharti hisoblanadi.

e) Ko'rgazmalilik. Bu o'quvchilarning umumlashtirish imkoniyatlarining chegaralanganligiga asoslanadi. Bu ularga narsaning mohiyatini anglashlarida halaqit beradi va ta'limni predmetli-ko'rgazmali asosda tashkil qilinishini talab qiladi. Ko'rgazmalilikni zaruratga aylantirish kerak. Ko'rgazmalilikning yordamchi maktabda bajariluvchi eng muhim funksiyalarni: o'quvchilarning sensor bazasini aniqlashtirish va kengaytirish (bolalar o'z tasavvurlarini mavjud predmetlar bilan solishtirish va aniqlik kiritadilar). Bu orqali predmetlar haqidagi to'g'ri va aniq tasavvurlar hosil qilinadi (atrofimizdagi olam haqida

ham). Ko'rgazmalilik yordamida o'quvchilarning differensizlashmagan idroki o'stiriladi: ular maxsus ko'rib chiqish uchun alohida qismni ajratib olishni o'rganadilar, taqqoslaydilar, idrok qilingan narsani mohiyatini anglaydilar ikkinchi darajalidan muhimini ajratib olishini o'rganadilar. Ko'rgazmalilik o'quvchilarga til vositalari (so'z, tushuncha) dan to'g'ri foydalanishga yordam beradi. Bu orqali ular atroflarida uchratadigan munosabatlarni ifodalaydilar: nutq sensor obrazlar bilan o'zaro aloqador va faqatgina nominativ funksiyani bajaradi. Ko'rgazmalilik ta'lim jarayonida korreksion-tarbiyaviy ahamiyat o'qituvchining quyidagilar ustidan kuzatuvni yo'lga qo'yish qobiliyatiga bog'liq: boshlang'ich sinflarda maksimal ko'rgazmali vositalardan foydalanish va o'z vaqtida so'zli ko'rgazmalarga o'tish. Ko'rgazmali materiallardan va so'zli izohlardan noto'g'ri foydalanish ta'limning korreksion-rivojlantiruvchi harakterga halaqit beradi.

Ta'lim orqali o'qituvchi o'quvchilar shaxsiyatiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Lekin asosiy nuqsonlar haqida o'ziga hisobot ham beradi. Bu nuqsonlar korreksion-tarbiyaviy ta'sirning diqqat markazida bo'lishi kerak, chunki ularga ko'rsatiladigan ta'sirga o'quvchilarning psixik rivojlanishining tezligi bog'liqdir. Korreksion ta'sirning eng muhim yo'nalishlari quyidagilar bo'lishi kerak:

Bilish jarayonlarining korreksiyalash.

Ta'lim jarayonida:

- Bilimlarni egallash uchun o'quvchilarga analiz-sintez, taqqoslash, klassifikatsiya qilish va boshqa fikriy o'ratsiyalarni amalga oshirishlariga imkoniyat yaratib berish kerak. Shu maqsad bilan irodani aniqlashtirish uchun vositalar tanlanadi: nomlash uchun belgilar soni qisqartiriladi, o'quvchilarga yechimni to'ishda yordam berib yuboriladi;

- O'quvchilarning aqliy faoliyatiga bo'lgan talab ularning individual hususiyatlarini inobatga olgan holda tizimli ravishda oshirib boriladi. Idrok qilish uchun beriladigan materiallar soni va murakkabligi orasidagi qarama-qarshilik sekin-asta qisqartiriladi, o'quvchilarga yordam ko'rsatish kamaytiriladi. Bunda ularning yosh xususiyatlari inobatga olinadi;

- Aqliy faoliyat avval predmetli-amaliy tarzda keyin esa ko'rgazmali ravishda va nihoyat obsrakt shaklda amalga oshiriladi. Shu maqsadda avval induktiv yondashuvdan foydalaniladi, keyin asta-sekinlik bilan o'quvchilarga tegishli bo'lgan deduksiyaga o'tiladi. Tashqi nutqdan ichki nutqqa o'tiladi; o'quvchilar harakatning tashqi rejasidan ichki rejasiga o'tishga o'rgatadilar;

- Bolalarga aqliy faoliyatni amalga oshirishlari uchun mos keluvchi namunalar taqdim etiladi. Biror ishni amalga oshirish bosqichlari ko'rsatiladi, o'quvchilar ularni hayolida bajarishga o'rgatiladilar, yechimni to'ish usullarini analogik misollar bilan amalga oshirishni o'rganadilar;

- O'quvchilarga o'zlashtirilgan aqliy faoliyatlarni faqat so'zlar orqali ifodalamay, balki grafik, 'lastik tarzda yoki mimika-ishoralar yordamida, drammatizatsiya orqali, amaliy harakatlar bilan ifodalash imkoniyati beriladi;

- O'quvchilarning aqliy faoliyati ularni ijtimoiy va hayotiy amaliyot bilan bog'laydi. O'quvchilarga ma'lum bir o'quv predmetidan olgan bilimlarni kasbiy va ijtimoiy amaliyotda ishlatish imkoniyatini ko'rsatib beriladi. Shu orqali ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinadi.

Bilish jarayonlarini rivojlantirish va ularga korreksion ta'sir ko'rsatishning didaktik qoidalari hamda bu qoidalarni oligofren o'quvchilar bilan olib boriladigan ishga tadbqiq etish.

1. Ta'limni shunday tashkil qilish kerakki, o'quvchilar o'quv materialini o'zlashtirib ob'yektning belgilarini ajrata olsinlar, taqqoslash, klassifikatsiya va boshqa aqliy o'eratsiyalarni amalga oshira olsinlar.

predmetli-amaliy faoliyatni amalga oshirishda, ko'p turdagi yordamchi vositalardan foydalanishda:

- ajratishga tegishli belgilar sonini kamatirish;
- o'quvchilar to'a oladigan yechimni aniq belgilab olish;
- o'quv materialining har biridan maxsus imkoniyatlar to'a olish va ularni qo'llash.

2. Aqliy faoliyatga bo'lgan talab miqdori va sifatini tizimli tarzda ko'paytirib borish. Buni differensial, individual imkoniyatlardan kelib chiqib amalga oshirish:

- bilish ob'yektining soni va qiyinchilik darajasini sekin-astalik bilan kengaytirish;
- o'quvchini boshqarishda o'zingizni ulushingizni kamaytirish.
- o'quvchining ta'lim jarayonida yuzaga chiquvchi imkoniyatlarni ko'proq qo'llash.

3. Aqli zaif o'quvchilarning belgilarini ajratish, taqqoslash, klassifikatsiya qilish va boshqa aqliy o'eratsiyalarni bajarishga xizmat qiluvchi analitik-sintetik faoliyatni avval predmetli-amaliy faoliyat sharoitida, keyin esa konkret sezish asosida va nihoyat obstrakt shaklda tashkillashtirish.

Quyidagilarni qadamba-qadam bajarish kerak:

- Ta'limga induksiyan joriy qilish;
- Deduksiyadan foydalsnish;
- Yetarli asosdagi interiorizatsiyani ta'minlash;
- O'quvchilarning nazoratini kuchaytirish;



- Og'izaki nutqni rivojlantirish orqali, ichki nutqni shakllantirishga erishish.

4.O'quvchilarga aqliy o'ratsiyalarni amalga oshirishda tayanishlari uchun zarur namunalarni berish:

-kuzatish, taqqoslash, ta'riflash, nazorat, sinov uchun algoritimdan foydalanish;

-o'quvchida o'quv materialini ma'lum qilishning asosiy variant bilan o'z faoliyati o'rtasidagi aloqani saqlash odatini tarbiyalash

-yechimning turli bosqichlarini hayolan bajarishga o'rgatish.

5.O'quvchi aqliy o'ratsiyalari natijasi haqida o'qituvchiga faqat so'zlar bilan emas, balki boshqacha yo'llar bilan ham ma'lum qilish: grafik, 'lastik, mimika va imo-ishora orqali, dramotizatsiya yoki amaliy harakat bilan.

-bilish jarayonlari natijalarini to'g'ri qayd etib borish.

6.Yordamchi maktabning aqli zaif o'quvchilarining aqliy faoliyatini real ijtimoiy va hayotiy amaliyot bilan bog'lash:

-muammoni qo'yishda motiv hosil qilish, olingan natijadan boshqa o'quv darslarida foydalanish imkoniyatini tushuntirish (kasbiy va ijtimoiy amaliyotda ham);

-natijadan ijtimoiy-foydali faoliyatda, talablarini bajarishda foydalanish.

Nutqiy rivojlanishni yo'lga qo'yish.

Ta'lim jarayonida:

-So'zlar va iboralar zahirasi kengaytiriladi. Shu maqsadda ob'yekga munosabat, uning ko'rinishi va so'z o'rtasidagi aloqa mashq qildiriladi, so'zni ma'nosiga ko'ra almashtirish mashq qilinadigan mashqlar taklif qilinadi, o'quvchilarning nutqini rivojlantirish uchun individual mashg'ulotlar o'tkaziladi;

-Faoliyat amalga oshirilayotganda fikrni yakunlash talab qilinadi. Davomli bo'lmagan amaliy va aqliy faoliyat tashkil etiladi va o'quvchilardan syujetli rasmlar asosida og'zaki va yozma hikoyalar tuzish talab etiladi.

O'quvchilar tomonidan ularda nima tasvirlanganini aytish kerak bo'lgan amaliy holatlar tashkil etiladi.

-O'quvchilar nutqidagi kamchiliklar bartaraf etiladi. Logo'edik mashg'ulotlardan ham foydalaniladi. Frantal mashg'ulotlar guruhli va individual mashg'ulotlar bilan mujassamlashtiriladi. Fonematik eshituvini rivojlantirish va artikulatsiyani yaxshilash uchun mashqlar qilinadi. Logo'edik ritmikadan foydalaniladi: turli shakldagi ga'larni tuzishda namunalari taqdim etiladi.

Nutqiy rivojlanishni yo'lga qo'yish va unga korreksion ta'sir ko'rsatishning didaktik qoidalari va ularni oligofren o'quvchilar bilan olib boriladigan ishga tadbiq qilish.

1.Leksik va sintaksik materiallarni chuqurlashtirish hayolda kechishini ta'minlash. Doimiy ravishda so'zlar zahirasi va sintaktik vositalarni kengaytirish:

-Rasmlar, so'zlar kabi ob'yektlarning munosabatini talab qiluvchi mashqlarni taklif qilish;

-Sintaktik konstruksiyalar namunalari bilan ishlash;

-So'zlarni hayolan almashtirishni talab etuvchi mashqlarni taklif qilish;

-Nutqqa sintaktik shakllarni kiritishni yo'lga qo'yish;

-Turli bolalar uchun nutqiy mashqli maxsus kartochkalardan foydalanib, korreksiya individualashtirish.

2.Har qanday pedagogik jarayonlar sharoitida o'z fikrini tugal ifodalash qobiliyatini rivojlantirish:

-Uzoq davom etmaydigan amaliy va aqliy faoliyatlarni tashkillashtirish, ularni so'z bilan izohlashga o'rgatish;

-Interiorizatsiya uchun predmetlar va ularning ifodalari (rasmlar) kabilarga tayanishni o'rgatish;

-Amaliy holatni hosil qilish, yuz bergan hodisani ifodalashni so'rash.

3.To'g'ri o'qish va yozish texnikasini egallashlarini yo'lga qo'yishga harakat qilish:

-Bolalarning o'qish va yozishdagi qiyinchiliklari ularni o'qiyotgan (yoki yozayotgan) narsalarini tushunishlariga halaqit bermasligi ustidan doimiy nazorat qilish;

-Ma'noni ifodalashga halaqit beruvchi to'siqlarni maqsadli tarzda yengib o'tish(masalan, farqlashga yoki sintez qillishga oid mashqlar berish);

-Topshiriqlarni o'qib bajarishni takif qilish;

-Ma'lumot berishda yozuv malakalaridan foydalanish.

4.Talaffuzdagi va noto'g'ri nutq qurilishidagi kamchiliklarni sistemali ravishda bartaraf qilish. Bunda logo'edik mashg'ulotlardan ham foydalanish:

-Buni frantal, guruhli va individual mashg'ulotlarda amalga oshirish;

-To'g'ri nutqning asosiy fonematik va nutq harakat jihatlarini yaxshilash;

-Logo'edik ritmikani tashkil qilish;

-Ga' tuzishning formal namunalari bilan ishlashni taklif qilish.

5.Bolalarning nutqi ustida ishlash jarayonida formalizmga yo'l qo'ymaslik kerak. Nutqiy malakalarning shakllanishi ularning amaliy va aqliy qobiliyatlari bilan mukammalashib, birgalikda amalga oshirishni nazorat qilish:

-Ko'p turdagi holatlarni hosil qilish. Bunda kammunikatsiyani talab qilish;

-O'quv jarayondagi amaliy, aqliy va nutqiy faoliyatini birlashtirish.

-O'quvchilar so'zlar bilan ga'irib berish imkoniyatini yaratib berish, shuningdek, unga boshqa do'stlarining ga'irib bergan ga'larini baholashni taklif qilish.

Motorikani yaxshilash.

Amalga oshirishdagi muhim harakatlar:

-Darsda va darsdan tashqari faoliyatda harakatlar ritmi yaxshilanadi. Shu maqsadda so'zli, izohli harakatlar birlashtiriladi, yozuv so'z bilan birga bo'ladi, so'zli ko'rsatmalar va ko'rgazmali namunalar asosida mashq qildiriladi;

-Faoliyatning ongli tarzda amalga oshirilishini nazorat qilish mashq qildiriladi. Bolalarga harakat va maqsad o'rtasidagi aloqalarni anglashlarida

yordam beriladi; murakkab harakatlar bosqichlarga bo'lib bajariladi; o'quvchilardan bajarganlarini so'zlab berishlari so'ng bajarishlari kerak bo'lganini tushuntirib berishlari so'raladi; o'quvchilarga harakatlarni analiz qilish o'rgatiladi, hatolarini o'zlari bilishlari va ularni o'zlari tuzatishlari talab etiladi;

-Harakatning ko'payib ketishiga yo'l qo'yolmaydi. Shu maqsadda vrach ko'rsatmasi asosida me'yor belgilanadi; og'irlik o'z vaqtida bir mushaklar guruhidan boshqasiga o'tkaziladi, tez-tez tanaffus beriladi, o'yinlardan to'g'ri foydalaniladi va boshqalar;

-Harakatlanish va yurish, gavnani tutishdagi qo'pol buzilishlarni to'g'irlash uchun maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi. Mashg'ulotlar guruhda olib boriladi. Zarur hollarda individual mashg'ulotlar o'tkazish, yordamga shifokor va boshqa mutaxassislarni jalb qilish mumkin.

Motorika ustida olib boriladigan korreksion-tarbiyaviy ishlarning didaktik qoidalari va ularni oligofren bolalar bilan olib boriladigan ishga tadbiq etish.

1.Darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda bolalarning harakat ritmini yaxshilashga ta'sir qiluvchi barcha imkoniyatlardan foydalanish:

-Butun tananing harakatini so'zli izohlar bilan umumlashtirish;

-Butun tanani yoki uning qismlarining harakatini mashq qildirishdagi muhim akustik va o'tik signallardan foydalanish;

-Murakkab motor kom'lekslarni bajarilishini aytib turish usuli bilan kuzatib boriladi (masalan, yozishni o'rganish jarayonida);

2.Bolalar harakatlarni ongli ravishda bajarishlarga erishish:

-Harakat va maqsad orasidagi aloqani aniqlashtirib olishlariga erishish;

-Bajarilayotgan harakatni fazolari bo'yicha nomlashga o'rgatish;

-Harakat jarayonini analiz qilishni yo'lga qo'yish, unga hatolarini ko'rsatish va ongli ravishda ularni to'g'irlashiga erishish.

3.Harakat yuklamasini ko'p o'quvchilarda muskullar tonusini quyidagi usullar bilan oshirilishini hisobga olish kerak:

-Muskullar guruhini almashtirish yo'li bilan;

-Harakatni bajarish davomida ayni bir xil muskullar guruhiga og'irlikni tushirish yo'li bilan;

-Og'irlik (yuklama) vaqti uzunligini sekin-sekin oshirish yo'li bilan.

4.Bajarilish jarayonida harakatni rivojlantirishni korreksiya qiluvchi mashqlarni qildirish:

-Turli fanlardan bilimlarni o'zlashtirish va amalda qo'llay olish uchun motor faoliyatlardan foydalanish;

-Harakatni to'g'ri ketma-ketlikda bajarishlarga erish (s'ortda, mehnatda, uy tutishda).

5.Harakat va gavda tutish, yurishdagi yaqqol ko'zga tashlanuvchi nuqsonlarni korreksiya qilish uchun maxsus mashg'ulotlardan foydalanish:

-Bir xil motor nuqsonlariga ega bo'lgan bolalarni guruhlab, mashg'ulotlarni tashkil qilish;

-Ishga fizioterapevtning jalbi qilish;

-Shifokor-orto'ed va boshqa mutaxassislarning yordamidan foydalanish;

Axloq – odob malakalarini shakllantirish.

Ta'lim jarayonida:

-Maktabda tartib saqlash ko'nikmalari shakllanadi, tez-tez qoidalar eslanadi; asosiy talablarni bajarish ketma-ketligi nazorat qilinadi; o'quvchilarning faoliyatini natijali tashkil qilish yordamida ular xulqini natijali tashkil qilish yordamida ular hulqini stabillashtirishga kuch beriladi; ijobiy hissiyotlar yordamida o'quvchilarning yaxshi xulqi qo'llab-quvvatlanadi; raqobat va jazo to'g'ri yo'lga qo'yiladi; o'quvchilarga talab barcha tarbiyachilar tomonidan bir xil yo'lga qo'yilishi ta'minlanadi.

-O'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish malakalari shakllanadi; o'quvchilar o'z hulqini va boshqalarning xulqini baholashda ishtirok etadilar; xulqni nazorat qilish bo'yicha ularga ham qisman huquq-vazifalar yuklatiladi.

-O'quvchilarda axloq-odob malakalari shakllanadi. Bolalar bu normalarni bajarishlari tizimli ravishda yo'lga qo'yiladi; bolalarga taqlid qilishlari mumkin

bo'lgan namunalar ko'rsatiladi; sinfdagi mas'uliyat har bir o'quvchining o'ziga xos xulqiga asoslanib bo'linadi; bolalardagi hissiy tonus qo'llab-quvvatlanadi.

-Ijtimoiy munosabatlardagi kamchiliklarni guruh yoki kollektiv bilan bartaraf etiladi. Shu maqsadda o'quvchilar berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatadilar; turli o'quvchilarga beriladigan topshiriq va vazifalar tez-tez o'zgaradi; sekin-sekin tanqid elementlari kiritiladi; muammoli vaziyatlarni bartaraf etish takti hosil bo'ladi.

-Xulq-atvordagi buzlishlarda tibbiy yordamdan foydalaniladi; hulq buzilishlari miyaning organik jarohatlanishiga asoslanadi. Vaqti-vaqti bilan tibbiy tekshiruvlar o'tkaziladi va tibbiy ma'lumotlardan to'g'ri foydalaniladi; o'quvchilar ayrim bolalarning noadekvat xulqlarini to'g'ri qabul qilishga o'rganadilar.

-Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalaniladi. O'qituvchi o'quvchining oilasiga tez-tez tashrif buyurib turadi, o'qishdan tashqaridagi vaqtda bolaga bo'ladigan tarbiyaviy ta'sirni ta'minlaydi.

Bolani mustaqil fikrini tarbiyalash.

Ro'yobga chiqarishdagi eng muhim ishlar:

-O'quvchilarga bilimlarni bayon qilishlarida mustaqil bo'lishlariga imkoniyat

beriladi. Shu maqsadda ularga yangi bilimlarni egallashlarini ta'minlaydigan uy vazifalari beriladi; ular shundoq ham tushunadigan va ularga allaqachon ma'lum bo'lgan narsalar haqida aytilmaydi; hajmi va murakkabligi bo'yicha beriladigan ma'lumotlarni to'g'ri taqsimlanadi; atrof-olam bilan predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'quvchilar o'zlari ko'ra olishlariga imkoniyat beriladi, ularga mos keluvchi misollarni to'ish va xulosa chiqarish jarayonida ishtirok etishlariga imkoniyat berish; yangi bilimlarni o'zlashtirish va avval o'zlashtirilganlarni amaliyotga tadbiiq etish jarayonida amaliy ishlarni keng qo'llash.

-Tekshiruvlarda va savol-javoblarda shunday savollarni tanlash kerakki, o'quvchilar unga mustaqil fikr yuritib javob bersinlar. Shuning uchun javobi o'z

ichida bo'lgan, kitobdagi mavzuni takrorlashni talab qiladigan yoki darslikdan o'qib berish mumkin bo'lgan savollarni bermaslik kerak. O'quvchilarni o'ylantiradigan savollarni berish kerak.

-Berilgan savolga javob berish vaqtida o'quvchi umumlashtirish, xulosa chiqarish, hosil bo'lgan muammoli vaziyatdan chiqish, o'rganganini qayta eslash.

-O'quvchilarni savol berishga o'rgatish lozim. Shu maqsadda kuzatuvlar o'tkaziladi, illyustrativ material ko'rib chiqiladi. Savollar avval o'rganilayotgan ob'yekt nomiga qaratiladi, keyin ularning hususiyatlari ochiladi. Qiyinchilik yuzaga kelganda o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi kerak: o'qituvchi o'zi savollarni beradi va o'quvchilardan ularni takrorlashni so'raydi. Keyin o'quvchilarning o'zlari savol tuzishga harakat qiladilar. O'quvchilarni so'zli stereoti'lardan saqlash ya'ni ayni bir xil savolni barcha holatlarda berishdan asrash; bolalarning tashabbusi va ijodkorlik qobiliyati kengaytirish.

-O'quvchilarni qo'yilgan savollarga javob berishga o'rgatish. Avval bajarilgan amaliy ish yuzasidan, o'tkazilgan ekskursiya, tomosha qilingan ko'rgazmaga oid savollardan boshlash kerak. Keyin asta-sekinlik bilan matn asosidagi savollarga javob berishga o'tiladi. O'quvchilarning javoblarini izohlashni tashkil etadi. O'quvchilarning imkoni darajasida muhokamalar tashkil etiladi.

-Sinflar va guruhlararo musobaqalar.

-To'liq yoki aniq bo'lmagan javob berilgan hollarda qo'shimcha savol beriladi. Ular yordamida o'quvchilar o'quv materialini aniqroq bayon qilishga o'rganadilar.

O'quv faoliyati usullarining shakllanishi eng muhim harakatlar:

-Oila yordamida bolalarni o'z huquqini nazorat qilishga tayyorlash. Shu maqsadda ota-onalarga o'yin qoidalaridan chetlashtirishga ruxsat bermasliklarini maslahat berish: o'yinni tashlab ketmaslik, diqqatni jamlashni talab qilish, berilgan topshiriqlarni bajarish; bolani ish bilan chaqirganda sababsiz kechikishiga yo'l qo'ymaslik; bolaga bo'sh vaqt berish va uni to'g'ri

tashkil qilishga o'rgatish; mustaqil bo'lishga bosim o'tkazmaslik, unga o'z-o'zini nazorat qilishni o'rgatish. Oilada shakllantirilgan bu ko'nikmalar o'quv jarayonida ham oson o'zlashtiriladi.

-Uy vazifasini bajarishlariga sharoit yaratib berish. Bolani ish stoli bilan ta'minlash kerak; darslarini har kuni bir vaqtda qilish; ishga tez moslashish; uy vazifalarini bajarishni qiyin topshiriqlardan boshlash, intensiv ravishda ishlash va o'z-o'ziga dam berish; xatolarni to'ish va ularni to'g'irlash.

-O'quvchilarga yodlash usullarini ko'rsatib berish. Shu maqsadda she'r o'qish, tarkibini aniqlashtirish, notanish so'zlarni aniqlash, ma'nosini o'z so'zlari bilan qisqa ga'irib berish, uni qismlarga bo'lish va o'sha qismlari bo'yicha yodlash.

-Matnni o'rganish jarayonida uning ma'noviy bo'limlarga bo'lish, ya'ni reja tuzishga o'rgatish. Birinchi marta o'qigandan keyin ga' nima haqida ketayotganini, asosiy g'oya nima ekanini qisqacha so'zlab berish; rejalar tuzish, har bir qismda ga' nima haqida ketayotganini aytish va matnga mavzu tanlash.

-O'quvchilarda o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Shu maqsadda o'quvchilarga hatolarini o'zi to'ishini aytish, o'zining ishini qo'shnisining ishi bilan solishtirishni, o'zining natijasini namuna bilan solishtirish (agar she'r bo'lsa – matni bilan, topshiriq bo'lsa – o'qituvchini javobi bilan, agar to'g'ri yozish qoidasi bo'lsa – qoida bilan solishtiriladi) o'quvchilarni oldinda turgan ishining rejasi bilan tanishtirish.

Kuzatuvchanlikni shakllantirish.

Buning uchun ta'lim jarayonida bolalar quyidagilarga o'rgatiladilar:

-Ob'yektlarni to'g'ri tanlashni amalga oshirish. Tabiiy sharoitlarda tabiiy ob'yektlarni ko'rib chiqishdan boshlab va sekin-astalik bilan qo'g'irchoq va rasmlarga o'tish; tabiiy ob'yektni uning tasviri bilan bir vaqtda ko'rib chiqishni tashkillashtirish; ob'yekt o'ziga xos burilish va hususiyatlarga ega bo'lishi kerak hamda ularga o'zlashtirilishi lozim.

-Kuzatuvningtashqiboshqaruviniamalgaoshirish:  
o'quvchilarnikuzatuviningmaqsadivarejasibilantanishtirish;



o'quvchilarni kuzatuvini asosiy qismlardan boshlashga o'rgatish;  
kuzatuv niso'zlar bilan izohlash, iloji boricha ko'proq analizatorlardan foydalanish;  
kuzatuvga yetarlicha vaqt berish.

-Qiyinchiliklar tug'ilgan holatda ishni yengillashtirish mumkin. Bunda ob'yekt taqdim etilgan rasmlardan foydalaniladi, uchinchi predmetni ham kiritish mumkin. Bunda kuzatilayotgan obyektlarni taqqoslashda farqlar va umumiy tomonlarni aniqlash osonlashadi.

### **I-Bob bo'yicha xulosa.**

Mujassam nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar maqsadi bolani o'zini-o'zi boshqarishga, bunday shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda o'z o'rnini egallashga o'rgatishdan iborat bo'libgina qolmay, ulardagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish, kom'ensatsiya qilishni ham tashkil etish. L.S.Vigotskiy aytganidek, korreksion ishda e'tiborni iloji boricha ertaroq boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari Mujassam nuqsonli bolalarda o'yin, o'qish, mehnat kabi kunlik faoliyatlarni rivojlantirish jarayonida ular o'zlarini hursand bo'lishlariga yoki hafa bo'lishga, omadiga, maqsad sari intilishiga, eng muhimi hayotga qiziqishiga uyg'otish mumkin. Mujassam nuqsonli bolalarni tarbiyalash jarayonidagi ish korreksion-kom'ensator harakterga ega bo'lishida ularni har tomonlama rivojlanishi va shaxsiyatining namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin ekan.

Logo'edik mashg'ulotlar, psixo-tera'evtik ta'sir, sog'lomlashtirish tadbirlari va davolash ishlari iloji boricha kom'leks tarzda olib borilsa, Mujassam nuqsonli bolalar korreksion ta'limining asosiy ko'rsatgichi – ularning mustaqilligi intellektual faolligining o'sishi, maqsad sari intilishi hamda mehnat faoliyatining, ta'lim va faoliyatining oshishiga qisman bo'lsada erishish mumkin.

## **II-Bob.Mujassam nuqsonli bolalarning psixologik-pedagogik tavsifi.**

### **2.1 Mujassam nuqsonli bolalar tavsifi.**

Bolalar rivojlanishining mujassam nuqsoniga ikki yoki undan ortiq ruxiy va jismoniy nuqsonlarni birga kelishiga aytiladi (aqliy rivojlanish, ko'ruv, eshituv, nutq, tayanch-harakat organlari va boshqalar). Bu mujassamlik o'zida nafaqat defektlar yig'indisini ifodalaydi, balki o'ziga xos sifatlarga ega va alohida tuzilishga ega.Mujassam nuqsonli bolalar – anomal bolalarning alohida guruhi bo'lib, nuqsonlar jamlanmasi ularning rivojlanishini sezilarli darajada buzadi (boshqa kategoriyadagi anomal bolalarga qaraganda).

L.S.Vigotskiyning fikricha, har qanday anomal bolaning rivojlanish tuzilishidagi murakkablik shundaki, birlamchi nuqson va uning oqibatida kelib chiquvchi ikkilamchi nuqson bolaning butun psixik rivojlanishida u yoki bu o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Biz ko'rib chiqayotgan holatda ikkita nuqson birlamchi hisoblanadi: harakat nuqsoni va intellektual nuqson.

psixikaning rivojlanmaganligi aqli zaif va BSF bolalarda malakalarni shakllanish jarayonidagi turli qiyinchiliklarni asoslaydi. Ularga xos kamchiliklar:

1. Qo'l kaftining mayda muskullarining rivojlanmaganligi, mushaklar bosimini farqlashning sustligi.

2. Alohida sezgilarning noaniqligi: ko'ruv, kinestetik, taktil (idrok va tasavvurlarning yetarlicha differensizlashmaganligi).

3. Fonematik eshituv kamchiliklari.

4. Analitik-sintetik faoliyatning rivojlanmaganligi.

5. Motorikaning qo'pol buzilganligi.

Harakat nuqsonlari intellektual nuqsonlar bilan birga keladi. BSFning alohida shakllaridagi intellektual nuqsonlar farqlanishi mumkin.

Og'ir harakat, sensor, nutqiy kamchiliklarga ega BSF bolalarda odatda ruhiy rivojlanish past darajada bo'ladi. Bolalar ta'lim jarayonida nutqning shakllanmaganligi, o'quv faoliyatiga nisbatan motivlarning yo'qligi, ish

sur'atining sustligi, xotira buzilishi, diqqat, maqsadga yo'nalganlikning buzilishi, bilim va tasavvurlarning chegaralanganligi tufayli turg'un qiyinchiliklarga uchraydilar.

Shuning uchun BSF bolaning intellektini baholashda har doim nafaqat aktual, balki rivojlanishning potensial darajasini, ya'ni «yaqin rivojlanish zonasi» ni aniqlash lozim (L.S.Vigotskiy).

Bunday bolalar bilan olib boriladigan ishni tashkil etishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kerak:

1. Oliy miya po'stlog'i funksiyalarining rivojlanmaganligi.
2. Serebral-astenik nuqsonlar.
3. Abstrakt nuqsonlar.
4. Aproksid nuqsonlar.
5. Sensor-motor nuqsonlar.
6. Motivatsiyaning past darajadaliigi.
7. Oliy miya po'stlog'i funksiyalarining buzilishi.

Intellekt nuqsonida shaxsiyatning rivojlanish xususiyatlari bilishga qiziqishning pastligi, tanqid qila olmaslik bilan birga keladi. Tengdoshlaridan ajratilganlik, atrof-olam bilan aloqalarning chegaralanganligi nafaqat o'z nuqsoniga bo'lgan shaxsiy reaksiya bilan, balki befarqlik, motivatsiyaning sustligi, irodaviy zo'riqishining kamligi bilan bog'liq.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bu kategoriyadagi bolalar uchun umumiy shaxsiy sifatlar xos:

- Hech qanday tanqidni qabul qilmaslikka intilish yaqqol ifodalangan,
- Umid qilish hissi yo'q,
- Atrofdagilar bilan solishtirish jarayonida bolalar o'z zaifliklarini his qiladilar,
- Doimiy himoyaga muhtojlik, doimiy havotir.

Yuqorida sanab o'tilingan o'ziga xosliklar Mujassam nuqsonli bolalarda ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni tug'diradi. Aqli zaiflik Mujassam nuqson

komponenti sifatida, anamal bolaning kompensator rivojlanishi potensialini juda ham tushurib yuboradi.

Amaliyotning ko'rsatishicha, korreksion usullarning keng spektridan foydalanish bolalarning idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqining rivojlanish darajasini yetarlicha oshiradi. Bu esa bolalarning o'z kuchlariga bo'lgan ishonchini oshiradi. Ularda barcha yangi narsalarga, o'quv faoliyatiga qiziqish 'aydo bo'ladi.

## **2.2 Aqli zaif bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari.**

Aqli zaiflikni o'rganish masalalari defektologiyada muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ular bilan nafaqat oligofreno'edagolgar, balki psixologlar, nevro'otologlar, psixiatrlar, embriologlar, genetiklar va boshqa mutaxassislar ham shug'illanadilar. Aqli zaiflikka bo'lgan e'tibor kuchayishining sababi shundaki, bu turdagi anomaliyaga ega bo'lgan odamlar soni kamaymaya'ti.

Bu haqida butun dunyo statistikasida ma'lumotlar berilmoqda.

L.S.Vigotskiy, L.R.Luriya, K.S.Lebedinskoya, V.I.Libovskiy, M.S.Pevzner, G.P.Suxaryova va boshqa olimlarning tadqiqotlari aqli zaiflikka faqatgina turg'un holat sifatida emas, balki bosh miya po'stloqlarining organik jarohatlari natijasida kelib chiqadigan bilish faoliyatlarining nuqsoni sifatida qarashga asos bo'ladi. Aynan bu belgilar (turg'inlik, nuqsonning organik kelib chiqanligi) aqli zaiflikni diagnostikasida birinchi navbatda inobatga olinishi kerak.

Aqli zaiflik – bu shunchaki aql miqdorining kamligi emas, balki markaziy nerv sistemasining organik jarohatlanishi natijasida barcha psixikaning, shaxsiyatning butunligicha sifat jihatdan o'zgarishidir. Bu shunday rivojlanish nuqsoniki, unda faqatgina intellekt emas, balki hissiyot, iroda, hulq, jismoniy rivojlanish ham zararlanadi. Aqli zaif bolalarning potologik rivojlanishining bunday diffuz xarakteri ularning oliy nerv faoliyati xususiyatlaridan hosil bo'ladi.

L.R.Luriya, V.I.Libovskiy, A.I. Mesheryakov, M.S.'evzner va boshqalarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, aqli zaiflarda shartli reflektor faoliyatida yetarlicha qo'pol o'zgarishlar, qo'zg'alishlar va tormozlanish jarayonlarining nobolansligi, signal tizimlarining o'zaro aloqasidagi buzilaishlar kuzatiladi. Bularning barchasi bolaning anomal psixik rivojlanishining fiziologik asoslari hisoblanadi (bilish jarayonlari, hissiyotlar, iroda, shaxsiyatni hisobga olgan holda).

K.A.Veretsotskaya, V.G.'etrova, J.I.Shif kabi psixologlarning tadqiqotlari natijasi yuqoridagi fikrimizni to'g'riligini ko'rsatadi.Asosiy nuqson idrokni umumlashtirishdagi buzilish hisoblanadi.Bu normal bolalar bilan solishtirganda, tem'ning sekinligi bilan ko'zga tashlanadi. Aqli zaif bolalarga ularga taklif qilingan material (rasm, matn)ni idrok qilishga sezilarli darajada ko'p vaqt talab qilinadi. Idrokning sekinligi yana shu bilan chuqurlashadiki, aqliy rivojlanmaganlik tufayli ular asosiy materialni ajrata olmaydilar, qismlar va 'ersonajlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunmaydilar. Shuning uchun ularning idroki kam differensizlashganligi bilan ham ajralib turadi. Bu xususiyatlar ta'lim jarayonida bilishning sekinlashgan tem'i bilan, o'quvchilarning grafik jihatdan o'xshab ketadigan harflarni adashtirishllari, o'zaro yaqin tovushlarni, shu bilan birga raqamlar va predmetlarni adashtirishlarida namoyon bo'ladi.Shuningdek, idrok hajmining kichikligi ham ko'zga tashlanadi.

Idrok qilish kamchiliklarining barchasi ushbu jarayon faolligining yetarli emasligida to'lanadi. Buning natijasida keyinchalik materialni tushunishning imkoniyatlari pasayib boradi. Ularning idrokini boshqarib turish kerak.Buni faqat ularning emotsional reaksiyalari bilan emas, balki idrok jarayonining sustligi bilan tushuntiriladi.Ular mustaqil ravishda hech narsani ko'rib chiqa olmaydilar, ularga doimiy turtki kerak. O'quv jarayonida bu shunga olib keladiki, o'quvchilar pedagogning rivojlantiruvchi savollarisiz o'zlari tushuna oldigan topshiriqni ham bajara olmaydilar. Aqli zaif bolalar fazoviy va vaqtni mo'ljal olishga qiynaladilar. Tez-tez hatto 8-9 yoshli bolalar ham o'ng va

chap tomonni to'a olmaydilar, oshxonaga, hojatxonaga borsalar adashib qoladilar. Ular vaqtni aniqlashda soatlarda, hafta kunlarida, yil fasllarida adashadilar. O'z tengdoshlariga qaraganda kech ajratishni boshlaydilar. J.I.Shifning ma'lumotlariga qaraganda, 14% holatlarda aqli zaif bolalar to'q-ko'k rang namunasi asosida to'q-yashil rangli ob'yekt tanlangan. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida bunday holat ko'zga tashlanmaydi.

Idrok tafakkur bilan o'zaro bo'g'liqdir. Agar o'quvchi o'quv materialini faqat tashqi tomondan idrok qilgan bo'lsa-yu, undagi asosiy mazmuni ilg'ab olmagan bo'lsa, ti'shiriqlarni tushunish, o'zlashtirish, bajarishda qiyinchiliklar tug'iladi. Tafakkur bilishning asosiy quroli hisoblanadi. U analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraktsiya, aniqlashtirish kabi o'eratsiyalar shaklida yig'iladi. V.G.Petrova, V.I.Penskiy, I.M.Solovyov, N.M.Stadnenko, J.I.Shif va boshqalarning tadqiqotlari ko'rsatishicha, bu barcha o'eratsiyalar aqli zaiflarda yetarlicha shakllanmagan va o'ziga xos chizgilarga ega.

Predmetlarni analiz qilishni ular tizimsiz ravishda amalga oshiradilar, bir qator muhim xususiyatlarni o'tkazib yuboradilar. Faqatgina o'zlari ahamiyat bergan jihatlargagina to'xtaladilar. Bunday analiz natijasida ular predmetning qismlari o'rtasidagi aloqani belgilashga qiynaladilar. Faqatgina ob'yektning kattaligi rangi kabi ko'zga tashlanadigan jihatlari belgilanadi. Predmetlarni analiz qilish jarayonida predmetning umumiy xossalari ajratiladi, ularning individual belgilariga esa ahamiyat berilmaydi. Analizning nomukammalligi sabab, sintez qilish jarayonida ham qiyinchiliklar yuzaga keladi. Predmetning alohida qismlarini ajratib, ularning butunligi yuzasidan tasavvurga ega bo'lmaydilar.

Aqli zaiflarda tafakkurning maxsus chizgilari taqqoslash o'eratsiyalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Predmetlar va hodisalarning asosiy ma'nosini ajrata olmaslik tufayli ular mavjud bo'lmagan va ko'pincha mos tushmaydigan belgilarni taqqoslaydilar. O'xshash predmetlarning farqlarini, farq qiluvchi predmetlarning esa umumiy tomonlarini to'ishga qiynaladilar. Ayniqsa, o'xshashlikni to'ish aqli zaif bolalar

uchun anchayin murakkab. Masalan, qalam va ruchkani solishtirib, ular shuni aniqlaydilar: uzunligi o'xshash, yana terisi ham bir xil.

Aqli zaiflarning tafakkurining farqli jihatlari notanqidiylik, o'z ishini mustaqil baholay olmaslik hisoblanadi. Ular ko'pincha o'z xatolarini sezmaydilar. Bu ayniqsa, psixik kasal bolalarda yaqqol namoyon bo'ladi, yana bosh miyaning

Peshona qismlari zararlangan. Ular o'z muvoffaqiyatsizliklarini ko'rmaydilar va o'zlari, o'z ishlaridan doimiy mamnun bo'ladilar. Barcha aqli zaif bolalar uchun fikriy jarayonlarning faolligining susayishi va tafakkurning to'g'rovchi roli sustligi xosdir. Aqli zaiflar odatda, yo'riqnomani oxirgacha eshitmay turib, faoliyatning ikkinchi rejasiz, o'z-o'zini yaxshi nazorat qilmay ishni bajarishga kirishib ketadilar.

Bolalarning idroki va o'quv materiallarini fikrlashi ularning xotiralarining o'ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Xotiraning asosiy jarayonlari bo'lmish – eslab qolish, esda saqlash va uni aytib berishda aqli zaif bolalar o'ziga xos xususiyatlariga ega. Chunki bu jarayonlar ularda anomal rivojlanish sharoitida shakllanadi. Ular tashqi belgilarini, ba'zan tasodifan ko'ruv orqali idrok qilingan belgilarni yaxshi eslab qoladilar. Ammo ichki mantiqiy bog'liqliklar ular tomonidan qiyin bilib olinadi va eslab qolinadi. Aqli zaif bolalarda taassurotli eslab qolish normadagi tengdoshlariga qaraganda kechroq rivojlanadi.

L.V.Zankov va V.G.Petrovalarning ta'kidlashicha, aqli zaiflarda xotiraning pastligi faqatgina ma'lumotni olish va saqlashdagi qiyinchilarda namoyon bo'lmay, balki ularni aytib berishda ham ko'rinadi. Bu normal intellektdan aqli zaiflar intellektining asosiy farqidir.

Aqli zaif bolalarda nutqning buzilishi tizimli xarakterga ega. Ularda nutqiy faoliyat bilan bog'liq barcha harakatlarning u yoki bu darajada shakllanmaganligi namoyon bo'ladi. Aqli zaif bolalarda nutqiy bayon turli darajada buzilgan bo'ladi.

Aytib berish – bu katta irodani va maqsadga yo'nalganlikni talab qiluvchi murakkab jarayondir. Hodisadagi mantiqni tushunmaslik oqibatida aqli zaiflarning aytib berishi tizimsiz xarakterga ega. Aytib berishning yetilmaganligi, eslab qolish va uni qayta yodga tushirish yo'llaridan foydalana olmaslik aqli zaiflarda aytib berish ko'proq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xotiraning yana bir xususiyati, bu e'izodik unutuluvchanlikdir. Bu nerv tizimidagi umumiy zaiflik sababli kuchli charchashga bo'g'liq. Normal tengdoshlariga qaraganda aqli zaiflarda tez-tez tormozlanish holati ro'y beradi.

Aqli zaif bolalarda idrok qilingan obrazlar, tasavvurlarni so'zlab berishda ham qiyinchiliklar kuzatiladi. Differensizlashmaganlik, fragmentarlik, obrazlarni adashtirish va boshqa nuqsonlar aqli zaiflarning bilish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayoni muvaffaqiyatli o'tishi va ijodiy xarakterga ega bo'lishi uchun, yetarlicha rivojlangan tasavvur zarur. Aqli zaiflarda tasavvur fragmentarligi, noaniqligi va sxemaliligi bilan ajralib turadi. Chunki ularning hayotiy tajribasi kambag'al, fikriy operatsiyalar mukammal emas, tasavvurlarning shakllanishi yaxshi bormaydi.

Aqli zaiflarda psixik jarayonlarining yuqorida ko'rsatilgan o'ziga xos xususiyatlari asosida ularning nutqiy faoliyati rivojlanishidagi kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Bu kamchiliklarning fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal tizimlari orasidagi o'zaro aloqalarning buzilishidir.

Mutaxassislar bergan ma'lumotlariga ko'ra, (M.F.Gnazdilov, G.'etrova va boshqalar) aqli zaiflarda nutqning barcha tomonlari jabrlanadi: fonetik, leksik, grammatik. Tovush-harf analiz-sintezida, nutqni idrok qilish va tushinishda qiyinchiliklar ko'zga tashlanadi. Buning natijasida yozishdagi turli buzilishlar, o'qish texnikasi egallashdagi qiyinchiliklar, nutqiy muloqotga bo'lgan talabning pasayishi kuzatiladi. Aqli zaif bolalarda normal tengdoshlariga qaraganda diqqat yetishmovchiligi ko'proq ifodalanadi: turg'unlikning kamligi, diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklar.



Oligofren bolalarda qiyinchiliklar yuzaga kelganda, ularni yengib o'tishga harakat qilmaydilar. Ular, bunday holatda ishni tashlab ketadilar. Agar ish juda qiziq bo'lsagina, u bolalardan ortiqcha bosimsiz talab qilmay, ularning diqqatini o'zida ushlab turishi mumkin. O'quv jarayonida diqqat qilayotgan ob'yektlar tez-tez almashadi, aynan bir ob'yekt yoki faoliyat turiga diqqatni jamlay olmaydilar.

Aqli zaiflik faqatgina bilish jarayonlarning shakllanmaganligida namoyon bo'ladi, balki hissiy-irodaviy sohadagi nuqsonlarda ham ko'rinadi.

Hissiyotlar rivojlanmaganligi kuzatiladi, havotirlanish ko'rinmaydi. Harakterli jihati hissiyotlarning turg'un emasligida ko'rinadi. Xursandchilik holati hech qanday sababsiz hafalikka aylanadi, kulgu – yig'iga aylanishi mumkin. Havotirlanishi yuzaki. Ayrim aqli zaiflarda emotsional reaksiyalar manbaga nisbatan noadekvat. Yoki emotsional qo'zg'aluvchanlikning yuqoriligi, yoki hissiy yiqilish (eyforiya, disfuriya, apatiya) kuzatiladi.

Aqli zaiflarning iroda sohasi holatini kam inobatga olish kerak. O'ziga bo'lgan ishonchining sustligi ularning irodaviy jarayonlarning farqli jihatidir. Tadqiqotchilar aniqlaganlaridek, aqli zaif bolalar ishida yengil yo'lni, irodaviy kuchni talab qilmaydigan oson yo'lni ma'qul ko'radilar. Shuning uchun ham ularning faoliyati taqlid, im'ulsiv qadamlar tez-tez uchrab turadi.

Aqli zaiflarning psixik jarayonlarining ushbu barcha xususiyatlari ular faoliyatining borishi harakteriga ta'sir ko'rsatadi. Faoliyat psixologiyasi G.M.Dulnev va B.I.Pinskiylar tomonidan chuqur o'rganilgan. O'quv faoliyati malakalarining shakllanmaganligini ta'kidlab, birinchi navbatda faoliyatning maqsadga yo'naluvchanligining rivojlanmaganligi, shuningdek o'z faoliyatini sanab o'tish kerak. Aqli zaiflar ishga zarur mo'ljal va yakuniy maqsadsiz kirishadilar. Shuning uchun oqibatda ishni bajarishning to'g'ri yo'lidan chiqib ketadilar. Bunday chetga chiqish (maqsaddan) qiyinchiliklar tug'ilganda, hamda faoliyatga yaqin motivlar yuzaga kelganda kuzatiladi.

Aqli zaiflar olingan natijani topshiriq bilan bog'lay olmaydilar, shuning uchun yechimni ham to'g'ri baholay olmaydilar. O'z ishiga tanqidiy yondashmaslik ham bu bolalarning faoliyatidagi o'ziga xosliklardan biridir.

Oliy nerv faoliyatining nuqsonlari, psixik jarayonlarning rivojlanmaganligi aqli zaif bolalar shaxsiyatining sababidir. psixologlar (A.D.Vinogradova, N.L.Kolomenskiy, J.I.Namazboyeva va boshqalar) ko'rsatishicha, normal intellektli tengdoshlaridan farqli ravishda aqli zaif bolalar atrof-olam haqidagi tasavvurlarning chegaralanganligi bilan, qiziqishlarning 'rimitivligi, motiv va ehtiyojlarning 'rimitivligi bilan karakterlanadi. Shaxsiyatning bu chiziq-lari tengdoshlari va yoshi kattalar bilan to'g'ri munosabatlarni shakllanishini qiyinlashtiradi.

Aqli zaif bolalarning barcha qayd etilgan psixik jarayon xususiyatlari turg'un harakterga ega, ular rivojlanishning erta bosqichlarida (genetik, tug'ruq jarayonida, 'ostnatal davrda)gi organik jarohatlar natijasi hisoblanadi.

Aqli zaiflik turg'un hodisa bo'lib ko'rinishiga qaramay, bu uni korreksiyalash mumkin emas degani emas. L.I.Lubovskiyy, M.S.Pevzner va boshqalarning ta'kidlashlaricha, maxsus muassasalar sharoitida to'g'ri tashkil etilgan tibbiy-pedagogik ta'sir vositasida aqli zaif bolaning rivojlanishida ijobiy dinamikaga erishish mumkin.

### **2.3. Serebral falajli bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari.**

BSF da nuqsonning strukturasi ruhiy rivojlanishda spesifik orqada qolishni o'zida mujassam etadi. psixika rivojlanishdagi nuqsonning mexanizmi murakkab bo'lib, vaqt o'tishi bilan va miyaning zararlanishining darajasi hamda lokalizatsiyasi bilan aniqlanadi. psixik nuqson ko'rinishi intellektning qo'pol rivojlanmaganligi bilan karakterlanadi. Homiladorlikning ikkinchi yarmi va tug'ruq jarayonidagi jarohatlarda orttirilgan psixik nuqsonlar mozoikali, notekis harakterga ega .

BSF bolalar psixik faoliyatining xronologik yetilishi keskin orqada qoladi va shu tarzda psixikaning turli shakldagi nuqsonlari yuzaga keladi, eng avvalo bilish jarayonlarida nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Harakat va ruhiy nuqsonlarning ifodalanishi o'rtasida aniq o'zaro bog'liqlik mavjud emas. Masalan, og'ir harakat buzilishlari psixik rivojlanishning yengil orqada

qolganligi bilan birga kelishi mumkin. BSF qoldiqlarini namoyon bo'lishi esa psixik funksiyalarning og'ir rivojlanmaganligi bilan uchrashi mumkin. BSF bolalar uchun psixik rivojlanishning o'ziga xos anomaliyasi mavjuddir. Bu anomaliya bosh miyaning erta organik jarohatlanishiga va turli harakat, nutq va sensor nuqsonlariga asoslanadi. Psixik buzilishlar genezida faoliyatning cheklanganligi, ijtimoiy munosabatlarlarning cheklanganligi va tarbiya atrof-muhit sharoitlari muhim rol o'ynaydi.<sup>8</sup>

BSFda psixik rivojlanishning anomaliyasi bilish jarayonlarining shakllanishidagi nuqsonlarni hissiy-irodaviy sohadagi va shaxsiyatdagi buzilishlarni o'z ichiga oladi.

BSFda intellektual nuqson tuzilishi bir qator o'ziga xosliklar bilan harakterlanadi:

1. Ma'lumotlar zahirasi va atrof-olam haqidagi notekis ravishda pasayishi.

Bu bir nechta sabablarga asoslanadi:

a) Zaruriy izolatsiya, uzoq davom etuvchi harakatsizlik yoki harakatlanishdagi qiyinchiliklar tufayli tengdoshlari va yoshi katta odamlar bilan munosabatlarning chegaralanganligi;

b) Harakatlanish nuqsonlari tufayli predmetli-amaliy faoliyat jarayonida atrofimizdagi olamni o'rganish, bilishdagi qiyinchiliklar;

c) Sensor funksiyalarning buzilishi.

BSFda turli analizatorlar tizimlarining faoliyatida mo'ljal olishdagi buzilishlar ko'zga tashlanadi. Ko'rishdagi, eshitishdagi, teri-taktil sezishdagi 'atalogiyalar idrok qilishning butunligiga halaqit beradi, ma'lumotlarning hajmini chegaralab qo'yadi, intellektual faoliyati qiyinlashtiradi.

Buyumlarni ushlab ko'rish, his qilish orqali idrok qilish BSF bolalarda yaqqol buzilgan bo'ladi. BSF bolalar atrofimizdagi olamning ko'p hodisalari va ijtimoiy jamiyatning ko'rinishlari haqida ko'p narsani bilmaydilar, ular faqat o'z amaliyotlarida uchratganlari haqidagina tasavvurga egalar.

---

<sup>8</sup> L.O.Badalyan, L.T.Jurba, O.V.Timonina «Детские церебральные параличи» Киев. 1988г.

2. Intellektual kamchiliklarning notekis, garmonik bo'lmagan harakteri. Bir intellektual funksiyaning buzilishi, boshqasining rivojlanishini orqada qoldiradi va uchinchisini saqlanishiga olib keladi. psixik rivojlanishning mozoik harakteri miyaning rivojlanishinig erta muddatlarida organik jarohatlanishi bilan bog'liqdir. Bunda miyaning birmuncha yosh funksional tizimlari esa intellektual faoliyatining murakkab oliy tashkiliy tomonlarini va boshqa oliy miya po'stlog'i funksiyalarini ta'minlaydi. Bosh miya po'stlog'ining oliy funksiyalarining shakllanmaganligi BSFda bilish jarayonlari buzilishining muhim qismi hisoblanadi.

Ko'proq bosh miya po'stlog'ining alohida funksiyalari zararlanadi. Avvalo fazoviy mo'ljal olish va vaqtni chamalashdagi kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Bolalarda tana tuzilishi kamchiliklari ifodalanadi. Sog'lom tengdoshlariga qaraganda, o'ng qo'l, yuz va tana qismlari haqidagi tasavvurlar sezilarli ravishda kech shakllanadi. Bolalar bu tana qismlarini o'zlarida ham, boshqa odamlarda ham qiyinchilik bilan ko'rsatadilar. Tananing o'ng va chap qismlarini ajratishga qiynaladilar. O'rtasida, orqasida, orasida, oldinda, tepada, pastda kabi fazoviy tushunchalar qiyinchilik bilan o'zlashtiriladi. Ular uzoq, yaqin, uzoqroq kabi tushunchalarni bu yerda va anavi yerda deb ifodalab qo'ya qoladilar. Ular qo'shimchalarni va ravishlarni (mo'ljal olishda ishlatiladigan ustida, yonida, atrofida kabi) tushunishga qiynaladilar. Maktabgacha yoshdagi BSF bolalar kattaliklarni, o'lchov tushunchalarni qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar, predmetlarning shaklini aniq ayta olmaydilar, yaqin tushunchalar (oval va aylana, kvadrat va to'g'ri to'rtburchak) ni ajrata olmaydilar.

Idrok qilishning sekinligi, mexanik xotira hajmining pastligi. Bolalarning ko'p qismi qiyinchilik bilan fazoviy mo'ljal olish munosabatlarini idrok qiladilar. Qismlardan butunini hosil qila olmaydilar – qirqilgan sur'atlarni birlashtirish, tayoqchalar yordamida namunaga qarab qurish kabi topshiriqlarni bajara olmaydilar. O'tik mo'ljal olish nuqsonlari tez-tez ko'zga tashlanadi. Bu holatda bolalar geometrik shakllarni ko'chirishga, chizishga, yozishga qiynaladilar. Fonematik idrokining, stereognoz va barcha turdagi 'raksisning

yetarli emasligi ko'p uchraydi. Ko'pchiligida fikriy jarayonlar shakllanishida kamchiliklar ko'zga tashlanadi.

3. Astenik holatlarning ifodalanishi -sekin harakatlanish, ruhiy jarayonlarning kechikishi, bir faoliyatdan boshqasiga o'tishdagi qiyinchiliklar, diqqatni yetarlicha jamlay olmaslik, yetarlicha vaqt berish;

- qiyinchiliklar tug'ilgan holatda ishni yengillashtirish mumkin, bunda ob'yekt taqdim etilgan rasmlardan foydalaniladi, uchunchi predmetni ham ko'rsatish mumkin. Bunda kuzatilayotgan ob'yektlarni taqqoslashda farqlar va umumiy tomonlarni aniqlash osonlashadi.

Ta'lim jaryonida korreksiya maqsadida qo'llaniluvchi aniq metodik yo'llar hilma-xil bo'lishi mumkin. Ular o'quv materialining ob'yektiv tarkibiga bog'liq, o'quv jarayonida amaliy ishlarni qo'llash imkoniyatining ko'p yoki kamligiga so'zli va amaliy ta'lim vositalarining birlashtirish yo'llariga bog'liq.

Korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning aniq metodik yo'li o'quvchilarning intellektual va hissiy-irodaviy sohasining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlanadi.

Bolalarning ko'p qismi bilish faoliyatining pastligi bilan ajralib turadi. Bunda topshiriqlarga qiziqish bo'lmaydi, diqqatni jamlay olmaydi, ruhiy jarayonlarning biridan ikkinchisiga sekinlik bilan o'tiladi. Aqliy ishchanlikning pastligi intellektual topshiriqlarni bajarish jarayonida tez charchashda ko'rinadi. Bu maktab yoshida turli intellektual yuklamalar vaqtida yaqqloroq namoyon bo'ladi. Bunda maqsadga yo'naltirilgan faoliyat buziladi.

BSF klinikasida nutq buzilishi asosiy o'rnini egallaydi. BSFda nutq buzilishi chastotasi 80%ni tashkil qiladi.<sup>9</sup>

BSFda turli analizator tizimlarning koordinatsiyalashgan faoliyati buzilgani kuzatiladi.

---

<sup>9</sup> M.Y.Ayupova «Logopediya» Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.II nashr 2011y.

Ko'rish nuqsoni (25%), eshitish nuqsoni (20-25%), teri-taktil sezish nuqsonlari ma'lumot olish hajmini chegaralaydi, BSF bolalarning intellektual faoliyatini qiyinlashtiradi.

Psixik rivojlanishi ortda qolmagan bolalar juda kam uchraydi. Bilish faoliyatining asosiy tuzilishi ruhiy rivojlanishning orqada qolishi hisoblanadi. Bu miyaning erta organik jarohatlanishi va hayot sharoitlariga bo'g'liq.

Intellekt holatiga ko'ra BSF bolalar turlicha bo'ladilar: ayrimlari normal yoki normaga yaqin intellektga ega bo'ladilar, ayrimlarida ruhiy rivojlanishning sustlashishi kuzatiladi, qolganlarida esa aqli zaiflik kuzatiladi.

BSF bolalar uchun hissiy-irodaviy soha buzilishlarining ham turlicha bo'lishi xosdir; ayrim bolalarda bu emotsional qo'zg'aluvchanlikning yuqoriligi bilan namoyon bo'ladi, boshqalarda esa – tormizlanish bilan namoyon bo'ladi. Kayfiyatning o'zgaruvchanligi tez-tez hissiy reaksiyalarining inertligi bilan birga keladi. Kulish yoki yig'lashni boshlagan bola, o'zini to'xtata olmay qoladi. Yuqori hissiy qo'zg'aluvchanlik ba'zi hollarda yig'loqilik, qaysarlik, odamovilik bilan birga kuzatiladi. Ayrim hollarda quvnoq, ko'tarinki, mamnun kayfiyat tanqidning sustlashishi (eyforiya) holati bilan birga kuzatiladi.

Xulq nuqsonlari harakatchanlikning tormozlanishi, agressiya, odamovilik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ayrim bolalarda butunlay befarqlik, betaraflikni kuzatish mumkin.

BSF bolalar shaxsiyati ham o'ziga xos tuzilishga ega. Yetarlicha intellektual rivojlanish tez-tez o'ziga nisbatan ishonchsizlikni, nomustaqillik, o'ta ta'sirchanlik bilan birga kuzatiladi. Ular maishiy va amaliy savollarga zaif yo'nalgan bo'ladilar, muhokamalarda ishtirok eta olmaydilar. Bolalar va o'smirlarda mustaqil amaliy faoliyatga noqobillik va xohishsizlik tezgina shakllanib qoladi. Ijtimoiy ada'tatsiyaning qiyinlashuvi odamovilik, o'z qiziqishlari, manfaatlari uchun turib bera olmaslikni shakllantirib qo'yadi. Bu yuqori sezuvchanlik bilan birga keladi.

Intellektning pasayishida shaxsiyat rivojlanishining xususiyatlari bilishga qiziqishning pastligi, o'z-o'ziga tanqidiy baho bera olmaslikda

namoyon bo'lad. Bu holatlarda ham befarqlik, iroda kuchining sustligi va shaxsiyatning zaifligi kuzatiladi.

Shu tarzda, BSF bolaning ruhiy rivojlanishi bilish faoliyatining, hissiy-irodaviy sohaning va shaxsiyatning shakllanishidagi nuqsonlar bilan xarakterlanadi.

Psixik rivojlanishi orqada qolmagan bolalar juda kam uchraydi.

Intellektning holatiga ko'ra, BSF bolalar turlicha guruhlanadilar. Ayrimlari normal yoki normaga yaqin intellektga ega bo'lsa, boshqalarida (40-45%) psixik rivojlanishning sustlashgani kuzatiladi, qolganlarida esa (20-25%) turli darajadagi aqli zaiflik kuzatiladi.

## **II-Bob bo'yicha xulosa.**

Aqli zaiflik hamda serebral falajbolalarda bilish, qiziqishlarning rivojlanmaganligi, ushlab ko'rish, his qilish orqali idrok qila olmagan sababli atrofimizdagi olamning ko'p hodisalari va ijtimoiy jamiyatning ko'rinishlari haqida ko'p narsalarni bilmaydilar, ular faqat o'z amaliyotlarida uchratganlari haqidagina tasavvurga egadirlar.

Maxsus muassasalar sharoitida to'g'ri tashkil etilgan tibbiy-'edagogik ta'sir vositasida aqli zaif va BSF bolalarning rivojlanishida ijobiy dinamikaga erishish mumkin ekan.

Har qanday nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish tuzilishidagi murakkablik, birlamchi nuqson hamda uning oqibatida kelib chiquvchi ikkilamchi nuqson bolaning psixik rivojlanishida u yoki bu o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Biz o'rgangan holatda har ikkila nuqson birlamchi (harakat nuqsoni hamda intllekt nuqsoni) hisoblanadi. Bunday nuqsonli bolalarda malakalarni shakllantirish jarayonida qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun katta iroda va kuchni talab etadi. Korreksion usullarning keng foydalanish bolalarning idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqining rivojlanish darajasini oshirishga imkon yaratadi. Bu esa bolalarning o'z kuchlariga bo'lgan ishonchini oshiradi.

### **III-Bob. Mujassam nuqsonli bolalarda korreksion ishni tashkil etish**

#### **3.1. Aqli zaif serebral-falaj bolalarning bilish faoliyatini korreksiyalash**

Mujassam nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning mazmuni bu toifadagi bolalarning bilish jarayonlaridan kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat.

Korreksion ishda obrazli xotirani rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Bolalar xotirasining asosiy tarkibi: predmetlarning aniq, ko'rgazmali, detalli obrazli, ularning xususiyati, harakatidir.

Eslab qolish va qayta esga olishning dastlabki usullari juda oddiy: nutqiy materialni qaytarish, buyruqlarni kattalar ortidan qaytarish, rasmlarni fazoviy joylashtirish va boshqalar. Keyinchalik eslab qolishning birmuncha murakkabroq usullari paydo bo'ladi, yordamchi vositalarni qo'llash, tayanch qildirish.

Yordamchi vositalar sifatida rasmlar, so'zlar, grafik timsollar, ko'rgazmali modellar olinishi mumkin. Bu tarzda erkin mantiqiy xotira rivojlana boshlaydi.

Bolalarning mehanik faoliyatini korreksiyalash bolalarga qanday eslab qolish va qayta esga olish, materialni hayoliy tahlil qilishning turli usullaridan qanday foydalanish, eslab qolish jarayonini qanday nazorat qilish kabi maqsadlarga qaratilgan ta'limni chamalab beradi.

Mujassam nuqsonli bolani aqliy jihatdan rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish kerak. Maktab dasturini o'zlashtirish boladan turli mahoratlarni: taqqoslash, analiz, umumlashtirish, muhokama qilish, chizish, mustaqil xulosa chiqarishlarni talab etadi.

Tafakkur oliy bilish jarayoni hisoblanadi. Mujassam nuqsonli bolalarning martab ta'limning birinchi bosqichida ko'ruv-obrazli tafakkurini rivojlantirishda fazoviy mo'ljal olishga aloqador, oddiy labirint topshiriqli, sxemalardan foydalaniluvchi qurilish o'yinlari foydalidir.



Ilk maktab yoshidagi o'quvchilarning sensor va aqliy rivojlanishi predmetli va o'yin faoliyatida amalga oshiriladi. Bu faoliyatlar davomida bolalar mustaqil ravishda predmetlarning yangi xususiyatlarini anglaydilar, ularning farqlarini ko'ra biladilar.

Mujassam nuqsonli bolalarning bilish jarayonlarini korreksiyalash.

Bola ongli ravishda bilimlarni egallashi, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi uchun undan bilish jarayonlarining yuqori darajada bo'lishi talab etiladi.

Mujassam nuqsonli bolalarning fikriy jarayonlarining xususiyatlari va bilish darajasining umumiy pastligi bilish sohalarining rivojlanmasligiga sabab bo'ladi. Ular tez-tez atrofidagi olam bilan aloqalarni mustaqil o'rnatmaydilar. Maktabga qabul qilingan vaqtdan boshlab bunday bolalarda psixikaning turli tomonlari pasayadi: bilish jarayonlarining eng past darajasi bo'lmish – sezgidan yuqori darajasi bo'lmish – tafakkurgacha. Bu turdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishning asosiy maqsadi ularning psixik jarayonlarini korreksiyalash va rivojlantirish. Ularni rivojlantirishning ko'rinib turgan usuli bilish jarayonlari hisoblanadi. Atrofimizdagi olamni bilish jarayoni barcha psixik jarayonlarning garmonik rivojlanishni talab etadi.

Bolalar uchun atrof-olamni bilishda jamiyatda qabul qilingan sensor etalonlarning ular tomonidan egallanishi muhim ahamiyatga ega. Ilk yillarda bola ko'rish va anglash, eshitish va tushunish his qilish va idrok qilishni o'rganadi. Yangi tug'ilgan chaqaloq shakl, rang, o'lchamni farqlashni o'rganmay turib ko'rmaydi va eshitganini anglamaydi. Bolada sensor etalonlar va ularning idrokiga persektiv ta'sirni shakllantirish nazarda tutiladi.

Atrof-olamni to'liq idrok qilishga o'rgatishga qaratilgan. Sensor rivojlantirish dunyoni bilishning asosi bo'lib, his qilish tajribasining birinchi zina'oyasi bo'lib xizmat qiladi. Normal voyaga yetayotgan bola maktab ta'limi vaqtigacha predmetni barcha qismlari yig'indisi sifatida butun qiyofasini idrok qila oladilar, predmetlarning mayda-mayda qismlarini ajrata oladilar va ularning fazoviy joylashishini o'rnatmay oladilar. Maxsus sensor tarbiyaning yo'qligida

idrokning rivojlanishi stixiyoli ravishda yuz beradi. Predmetlarni o'rganishning umumlashgan usullarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Sensor etalonlarning intellektual o'zlashtirilishi, miqdoriy aloqalarning o'rnatilishi geometrik shakllar, fazo, vaqt, harakat, rang, fonema, grofema, raqam kabilar haqidagi tasavvurlarni aniqlashtiradi.

Har qanday o'qishning asosi, har qanday ijodiy faoliyatining zaruriy sharti xotiradir. Xotira ham boricha bilish jarayonlari kabi o'zida real voqelikni aks ettiradi.

Bilish jarayonlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilimlar va amaliy mashqlar turlari.

### 1. Idrok.

### 1-jadval.

Kategoriya.	Vazifalar.	Faoliyat turi.	Vazifa va didaktik material.
1. Ko'ruv-predmetli idrok.	Ko'z bilan chamalashni rivojlantirish.	1. Atrofimizdagi buyumlarning shaklini belgilash.	«Nimaga o'xshaydi» o'yini.
		2. Ko'rib aniqlash.	«Kim aniqroq aytadi?»
		a) Qalamni stol bo'ylab necha marta joylashtirish mumkin? b) Bankaga necha stakan suv ketadi va hokazo.	
	1. Ko'z bilan chamalashni va diqqatni oshirish.	3. Kletkalarni sanash, rasmlarni o'zidagisi bilan birlashtirish.	«Setka bo'ylab chizish»
			a) Berilgan uzunlikda to'g'ri gorizantal chiziq chizish (katak bo'ylab) b) Berilgan uzunlikda to'g'ri vertikal chiziqni katak bo'ylab chizish.
			Kataklar birlashgan joyda nuqta qo'yish.

			Katak o'rtasiga nuqta qo'yish.
	2.Narsaning uzunligi, kengligi, balandligini o'lchash, shakl va hajmini aniqlashga o'rgatish.	Turli belgilari bo'yicha narsalarni taqqoslash.	«Buyumlarni oxirgacha chizib qo'y».
		Og'zaki ko'rsatma asosida narsalarni guruhlash.	«Huddi shunday (harf, raqam,geometrik shaklni) to'»
		Guruh ichida bir yoki bir nechta buyumni ajratib olish.	
2.Akustikidrok.	Eshituv diqqatini, nonutqiy tovushlarni differensizlashgan idrokni shakllantirish.	Ritmlarni baholash, ijro etish. Jarangiga qarab buyumlarni aniqlash.	-necha marta taqillatdim? -huddi menga o'xshab taqillat kabilar.
3.Teri-taktil orqali idrok qilish.	1)Stereogn oz funksiyalarini rivojlantirish. 2)Taktil-vibratsion sezgilarni rivojlantirish.	Buyumlarni taktil his qilish orqali tanish. Tovush manbaini vibratsiya orqali to'ish.	«Qo'chada nima?»,«Bu kim?» o'yini (shirma bilan o'ynaladi).
4.Masofaviy -ko'ruv gnozisi.	predmet va qiyofalarni masofaviy idrok qilishni rivojlantirish.	Rim raqamlarini aytib, tanlash. Sxematik soatlarda vaqtni aniqlash.	«Hamma narsa o'z o'rnida» o'yini, «Rasmni chiziq bo'ylab o'zing chiz» o'yni, «Qara, bu yerda nima yetishmaya'ti?»
5.Samatik mo'ljal olish gnozisi	Tana buzilishini masofaviy idrok qilishni, ong–chap tushunchalarini rivojlantirish.	O'z tana qismlarini ko'rsatish. O'ng qo'l bilan so'ralgan predmetni ko'rsatish. Og'izaki ko'rsatma asosida rasm chizish.	«O'ng qo'ling bilan ...larni ko'rsat». Ko'rsatmalarni bajarish.

## 2.Diqqat.

2-jadval.

Kategoriya.	Yetakchi faoliyat.		
	O'tik soha.	Eshituv.	Nutqiy.
1.Kuzatuv chanlik.	Figuralar juftligini joylashtirish.	So'zlar qatoridan bitta belgini hosil qilish.	Matnda yashiringan so'zlarni izlash.
2.Turg'unlik.	Labirint chiziqlarni ustidan yur.	Ma'lum farq qiluvchi belgilar asosida so'zlarni yozish.	Berilgan vazifa asosida matnni eshitish.
3.Taqsimlash.	Turli shakldagi buyumlarni bir vaqtda xisoblash.	So'zlarni bir vaqtda hisoblash.	Matnning tarkibini tushuntirish.

## 3.Xotira. «Ikki qo'llab chizish» nomli A.A.Suxanova metodikasi.

3-jadval.

4.Ko'chish.	Turli shakldagi raqamlar orasidan keragini to'.	Raqamlar qatoridan ma'lum sonni to'.	Ga'dagi ayrim so'zni takrorlash.
5.Reaksiyani mashq qildirish.	Loto, damino.	Raqamlarga tovushlarni tez taxlash.	Ga'ga reaksiya berish.



## 4.Tafakkur.










4-jadval.

Turi.	Vazifalari.	Faoliyat.	Topshiriq va didaktik material.
1.Eshituv-nutqiy xotira.	Qisqa muddatli xotirani qilish.  Xotira hajmini oshirish.	1.Ma'lum so'zlarni qaytarish. 2.So'zlar seriyasini qaytarish. 3.So'zlar guruhini eslab qolish.  1.Oldin aytilgan so'zlarni qaytarish va eslab qolish. 2.Xotirada saqlab qolish usullarini shakllantirish.	Ko'rsatma bo'yicha:  Qaytar: uy, stol, qog'oz.  Seriya: stol, qo'ng'iroq, o'rmon, shkaf.  1-guruh: stol, dumaloq, yer. 2-guruh: kun, it, daraxt.  «Qarachi» o'yini, «So'zlar juftligi».
2.Ko'ruv xotira.	Ko'rganni eslab qolish va so'zlash qobiliyatini oshirish.	1.predmetli rasmlarni eslab qolish; 2.Ikkinchi qatordagi rasmlarni birinchisini ko'rib eslab qolish; 3.Rasmni xotira asosida chizish; 4.Savollarga javob berish.	Bu rasmlarni esab qol va boshqalarni ichidan ularni to'.  Qara va o'zing chiz.  Eslab tasvirlab ber.

Kategoriya.	Vazifalar.	Faoliyat turi.	Topshiriq va didaktik material.
Obrazli tafakkur.	<p data-bbox="523 309 852 389">Analiz va sintez o'ratsiyasi.</p> <p data-bbox="523 1039 839 1115">Buyumlar, obyektlarni farqlash.</p>	<p data-bbox="874 309 1147 600">1.Bolalar so'zlarga tayanmasdan, narsalar va hayvonlarning rasmlarini taxlaydilar.</p> <p data-bbox="874 607 1147 815">2.Huddi shu ishni so'zlarga (nomlash)ga tayanib bajaradilar.</p> <p data-bbox="874 822 1147 1025">3.Bir buyumni so'z bilan nomlay, birini nomlab taxlash.</p> <p data-bbox="874 1032 1147 1120">4.Hosil qilish:</p> <p data-bbox="874 1126 1147 1285">a) 7 chiziqdan 2 ta teng kvadrat hosil qilish;</p> <p data-bbox="874 1292 1147 1456">b) 5 chiziqdan 2 ta teng uchburchak hosil qilish;</p> <p data-bbox="874 1462 1147 1626">d) 10 ta chiziqdan 2 ta kvadrat hosil qilish;</p> <p data-bbox="874 1632 1147 1796">e) bir nechta qismlardan kvadrat hosil qilish.</p> <p data-bbox="874 1803 1147 1966">5.Geometrik shakllardan turli obrazlarni yasash.</p>	<p data-bbox="1169 309 1473 472">«Qismlardan buyum hosil qiling» (qirqilgan sur'atlar),</p> <p data-bbox="1169 607 1473 898">«Qandaydir buyumni birlashtir» (2-3 predmetning qismlari orasidan kerakligini tanlash va birlashtirish).</p> <p data-bbox="1169 994 1473 1285">Berilgan miqdordagi chiziqchalardan turli geometrik shakllarni hosil qilish boshqotirmasi.</p> <p data-bbox="1169 1420 1473 1845">«Kvadrat yasa» (B.'.Nikitin metodikasi), «Tangram» o'yini, «'ifagor kvadratli'", «Kolumbo tuxumi» va boshqalar.</p>

Mnemo jadvallarni ishlatib xotirani rivojlantirish borasida yaxshi natijalarga erishish mumkin. Maqsadiga bog'liq ravishda u mantiq, diqqatga tuziladi. Ularga harflar va sonlar kiritiladi. Mnemo jadvallar bolalarni tahlil qilishga o'rgatadi, obrazli tafakkurni rivojlantiradi, diqqatni va kuzatuvchanlikni mashq qildiradi.

GA		3
+	RA	5
NO		8

Mantiqiy kvadratlarni hosil qilish.

	2	
2		2
	3	
3		3
	4	
4		4

5		
	5	5
6		
	6	6
7		
	7	7

O'yin qoidasi: bolalar raqamlarni shunday joylashtirishlari kerakki, har bir gorizantal qatorda va diagonaliga 1-kvadratdagi raqamlar yig'indisi – 9 ga, ikkinchisidagi raqamlar yig'indasidaginesa – 18 ga teng bo'lsin.

	2	
3		4
	3	
4		2
	4	
2		3

6		
	5	7
7		
	6	5
5		
	7	6

So'z-mantiqiy tafakkurini oshirishga mo'ljallangan topshiriqlar:

1. Stolda bitta qatorda 3 ta tayoqcha turibdi.

- O'rtadagi tayoqchani unga tegmasdan chetkisi qilib qo'yish mumkinmi?

Qanday qilib? (Eng chetkisini olib tashlash kerak).

- Qanday qilib 2 ta tayoqcha yordamida stolda kvadratni hosil qilish mumkin?

2. Hazil topishmoqlar:

Ti'ratikan o'rmonda ketayotgan ekan,

Tushlikka qo'ziqorin to'ibdi.

Ikkitasi archa tagida,

Ikkitasi tut ostida.

Savatga solsa ular nechta bo'ladi?

3. Mantiqiy yakun.

Masalan:

Agar o'ng qo'limiz o'ng tomonda bo'lsa, chap qo'limiz . . . ? (chap tomonda)

Agar daryo ariqdan chuqurroq bo'lsa, demak, ariq . . . ? (kichikroq)

Agar ikki birdan katta bo'lsa, unda bir . . . ? (ikkidan kichik) va boshqalar.

4. «Keyin nima bo'ladi?» yoki «Davom ettir».

- 1, 2, 3, . . . ?

- Qish, bahor, . . . ?

- Xona, uy, . . . ? (ko'cha, tuman, shahar, davlat).

5. To'rtinchi so'zni to'rish.

Mix - bolg'a, shuru' - . . . . (otyorka),

Uy - tom, kitob - . . . . (muqova),

Oyoqlar - etik, qo'llar - . . . . (qo'lqo')

6. Bu predmetlarning umumiy jihatini to':

O'rik, ovqat, sabzi (ularni yeyish mumkin).



Osmon, ko'z, suv (rangi moviy) va boshqalar.

7. Qarama – qarshi tushunchani ber:

Issiq - . . . .

Qish - . . . .

Qimmat - . . . .

8. Metagrammalar.

Bir so'zdagi harfni almashtirish orqali yangi so'zni hosil qilish.

«K» bilan «'» («Karta» va «'arta'')

«K» bilan «Sh» («Kamol» va «Shamol»)

9. So'zlarni hosil qilish: bolalarga berilgan so'zning faqat bitta harfini o'zgartirib, yangi so'z hosil qilish taklif qilinadi.

10. Anagrammalar.

Bu aynan bir xil harflarning turli tartibda joylashishi orqali hosil qilinadigan turli so'zlardir. Bolalarga bu so'zdan boshqasini hosil qilish taklif qilinadi. Masalan: atlas – salat

Agar katta so'zni olsak,

Harflarni sohib yuborsak,

Keyin esa qayta yeg'sak,

Yangi so'z hosil bo'ladi.

Mana «gastranom» so'zidan

Chiqib keldi «astranom»

Undan esa «agranom».

11. «Teruvchi»

O'yinni barcha ishtirokchilari daftarga so'z yozadilar. Bu so'z tarkibiga kiruvchi harflardan yangi so'zlar hosil qilinadi. Topshiriqni bajarishga ma'lum vaqt beriladi.

12. Chaynvordlar.

a) Oldingi so'zning oxirgi harfidan yangi so'z yozib, so'zlar zanjiri hosil qilinadi:

Qor – rasm – meva – ayiq – . . . .

b) Kataklarni shunday to'ldirish kerakki, har bir so'zning boshi va oxiri raqamlarga mos kelsin:

1 – 3 gol, 1 – 10 gollandiya, 9 – 13 yashil

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13

13. Krassvordlar.

a) Ma'lum mavzuga bagishlangan;

b) Shifrlangan so'zlar bilan.

14. Falklor materialidan foydalanish.

Vazifa: atrofimizdagi olam haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, xotirani mashq qildirish, diksiyani korreksiyalash, nutqning 'rosodik tomonlarini, intellektual rivojlanishni korreksiyalash.

«Maqolni yakunla»

Maqolni boshlanishi yoki yakuni berilgan tablichkalar.

Boshlovchi maqolni boshini aytadi, kimning qo'lidagi tablichkada o'sha maqolning yakuni bo'lsa, qo'lini ko'taradi. Avval tablichkani, keyin maqolni hammasini o'qib beradi.

«Maqol yoki tez aytish bilan javob ber»

Maqollar va ibora yozilgan kartochkalar beriladi. Turli holatlarning qisqacha bayoni o'qib beriladi. Kimning kartochkasida ushbu vaziyatga mos maqol yoki ibora yozilgan bo'lsa, qo'lini ko'taradi. Har bir to'g'ri to'ilgan maqol yoki ibora uchun bir ball beriladi.

«Telefanislar musobaqasi»

Ikkita guruh o'ynaydi. Har bir guruh bitta qator bo'lib o'tirib olishadi. Boshlovchi uncha murakkab bo'lgan tez aytishni tanlaydi va qo'shnisining qulog'iga aytadi, u esa o'zining yonida o'tirgan ishtirokchining qulog'iga aytadi. Har bir qatorning oxirida o'tirgan ishtirokchi ovozini chiqarib eshitgan tez aytishni aytadi.

### **3.2. Mujassam nuqsonli bolalarning harakat sohasini korreksiyalash.**

BSF – miyaning erta jarohatlanishi (zararlanishi) bilan bog'liq kasallikdir. BSF bola to'g'ri harakat malakalariga va harakat haqidagi tasavvurlarga ega bo'lmaydi. Shuning uchun davolovchi jismoniy tarbiya darslarida u yoki bu malaka shakllanadi va harakatni o'zida his qilish orqali to'g'ri tasavvurlar shakllanadi.

Bu darslarda bolalarga turli harakatlar va buyumlar bilan olib boriladigan turli faoliyatlar o'rgatiladi. Har bir yangi harakat tizimini shakllantirishda instruktor bolaning harakatlarni bajarishdagi aniqligiga, harakatlar ekanligiga, bir harakatdan boshqasiga yumshoqlik bilan o'tishga, harakatlar am'litudasining ortishi yoki kamayishiga erishadi.

Buyumlarni ushlab turli usullari (ularning o'lchami, shakli, sifatiga mos holda), turli materiallarni moni'ulyatsiya qilish qo'lining mayda motorikasini rivojlantiradi. Yuqorida taqdim etilgan kom'lekslar (harakat buzilishlarini korreksiya qilishga oid jismoniy mashqlar) T.M.Tarasovanning metodik qo'llanmasidan olingan. Bu qo'llanmadagi ma'lumotlar jismoniy tarbiya o'qituvchilari, tarbiyachilari va ota-onalar tominidan taqdim qilingan va amaliy qiziqishga ega.

Mujassam nuqsonda giperkinezda BSF uchratilgani bois, bu shaklga oid mashqlar kom'leksini ko'rib chiqamiz. Boshqa hollarda esa o'qituvchi qo'llanmaning asl nusxasiga murojaat qilishi mumkin.

Giperkinezlar – asab tizimining organik va funksional buzilishiga asoslangan harakat nuqsonlari guruhidir.

T.M.Tarasova giperkinezlarning alohida holatda, ko'proq o'zaro birgalikda keluvchi turli shakllarini ta'riflaydi. BSFning giperkinezli formasi bilan og'riq bolalar uchun mo'ljallab taqdim qilingan mashqlar tizimi barcha mutaxassislariga uni o'qish va maktabdan tashqari vaqtlarda ishlatishga, jismoniy yuklamani adekvat ravishda tanlashga imkon beradi.

Davolovchi jismoniy tarbiyaning vazifalari:

1. Nafas olishni me'yorga solish;
  2. Muskullar tonusini me'yorga solish;
  3. Muskullar guruhini mustahkamlovchi massaj;
  4. Korreksiya elementlari bilan umumiy mustahkamlovchi gimnastika;
  5. Qo'l-oyoqlardagi barcha bo'g'implarning passiv-aktiv harakatlari uyg'unligida bo'shashtiruvchi mashqlar;
  6. Harakat va holatlarni stabillashtirish uchun mashqlar;
  7. Giperkinezlarning to'xtatishni o'rgatish;
  8. 'atalogik tonik reflekslarni yo'qotish;
  9. Umurtqa pog'onasining tayanch-harakat faoliyatlarini rivojlantirish va mashq qildirish;
  10. Reaksiya, muvozanatni ushlab, diqqatning koordinatsiyasini rivojlantirish va mashq qildirish;
  11. Hayotiy zarur harakat malakalarini singdirish.
- Giperkinez shaklli BSF bolalar uchun taxminiy mashqlar majmuasi.
- I. Barcha mashqlar kuzatuv nazorati ostida bajariladi:
1. 10-15minut korreksiya bilan tekislash;
  2. Bel bilan yotiladi. Qo'llar ko'krak qafasida, oyoqlar yuk yoki tasma bilan fiksirlangan. Boshni dahan ko'krakka tekuncha egiladi;
  3. Qo'llar gavda bo'ylab uzatiladi, oyoqlar uzatilgan, qo'lni navbatma-navbat tirsak bo'g'implariga bukish;
  4. Qo'llar ko'krak qafasida. Oyoqni navbatma-navbat tos-son bo'g'imiga olib kelish. Sekin-asta harakatlar am'litudasi oshiriladi;
  5. Qo'llar bosh orqasida, oyoqlar tizzadan bukilgan, tizzalarni o'ng-chap tarafga olib, boshashtiramiz;
  6. Qo'llar bosh orqasida, oyoqlar bukilgan, tosni ko'taramiz;
  7. Oyoqlar to'g'ri uzatilgan, qo'llar yonda,kaftlar tepaga qaragan, bir qo'lni ko'tarib ikkinchisiga tekkizamiz. Tana, gavda burilishi kerak;

8. Nafas mashqi. Nafas chiqarayotganda «I», «Z», «U», «Y» tovushlarini talaffuz qilish;

9. Qo'llar tepada, tanani beldan qoringa bukish va aksincha.

Qoringa yotib bajariladigan mashqlar:

1. Qo'llar bukilgan, 'anjalar yelkaga tayangan, boshni harakatlantirish.

2. Qo'llar yelkada, oyoqlar tog'ri egilamiz.

3. Dumba muskullarini qisqartirish.

4. Bir vaqtda o'ng qo'l chap oyoq va cho' qo'l o'ng oyoqni ko'tarish.

5. «Bross» usulida suzishni o'xshatish.

6. Bo'shashish.

7. Yotgan holatdan muvozanatni saqlagan holda to'rt oyoqda turish holatiga o'tish. O'ng qo'l – chap oyoqni ko'tarish, keyin chap qo'l – o'ng oyoqni ko'tarish va muvozanatni saqlash.

8. (Qo'lga tayangan holda va tayanmagan holatda) tizzadan tik holatga o'tish.

9. Turgan holatda gavnani tutishni nazorat qilish.

10. O'ng, chap yon bilan yurish – yonga qadam tashlash bilan bajariladi.

11. Bo'shashish – qo'llarni bir vaqtda yuqoriga – orqaga silkitish, tana oldinga engashadi.

12. Bir oyoqni ko'tarib, oldinga – orqaga harakatlantirish.

13. Qo'llarni yuqoriga ko'tarib – nafas olish, pastga tushirib – nafas chiqarish.

II. Qo'l va oyoqlarning elementar harakatlarini og'ir kastyumda yoki qo'l va oyoqlardagi manjetida yuki bo'lgan kiyimlarda bajarish mumkin. 6-10 yosh bolalarga har bir yengida 1-1.5 kg og'irlikdagi kiyim, oyoqlarga esa 1 kg li og'irlik beruvchi kiyim kiyg'izish mumkin. 11-15 yoshli bolalar harakatlarni rezina bint, tuz yoki qumli qo'cha yordamida bajarishlari mumkin.

III. Mashqlarni bajarish jarayonida:

- O'yinlar, estafetalar yordamida umumiy harakatchanlikni yaxshilash;

- Mashqlarni bajarish aniqligini kuzatish;
- Muvozanatni ushlashni mashq qildirish kerak.

Giperkinez shaklli BSF bolalarning vestibular faoliyatini mashq qildirish uchun taxminiy mashqlar majmuasi (1-bosqich).

1. 30 sekund «embrion» pozasida bo'shshish;
2. 6-8 marta nafas mashqi;
3. 6-8 marta boshni o'ng, chapga engashtirish;
4. Gavdani 6-8 marta burish;
5. Oyoqlarni tizza bo'g'imiga bukish, 6-8 marta o'ng va chap tomonlarga oyoqni tushirish;
6. 6-8 marta yotgan holatdan o'tirgan holatga holatga o'tish, oyoqlarni yozish;
7. 6-8 marta oyoq va qo'llarni tomonlarga uzatish va 4 gacha sanab bo'shashtirish.

Qorin bilan yotib bajariladigan mashqlar.

1. 5-8 marta qo'l va oyoqlarni bir vaqtda ko'tarish;
2. Oyoqlarni navbatma-navbat tizzaga bukish (10-12 marta);
3. Qorindan belga aylanamiz (5-8 marta).

Yonboshlab yotib bajariladigan mashqlar.

1. O'ng oyoqni bukamiz, ko'taramiz va oyoq kaftini qo'yamiz (6-8 marta);
2. O'ng oyoqni yozish, chap oyoqni boshqa yonboshda yozish (6-8 marta);

To'rt oyoqlab turish bajariladigan mashqlar.

1. Instruktorning muvozanatdan chiqaruvchi turli xil turtishlari;
2. Tovonga o'tirib – turish (8-10 marta).

Yurib bajariladigan mashqlar.

1. Odatiy yurish (20 sekund);
2. Sekinlashgan va tezlashgan yurish (20 sekund);
3. Signalga qarab orqaga va oldinga yurish (25 sekund);

4. Tovonda yurish;
5. Signalga qarab o'ng va chapga yonlamachasiga yurish;
6. Chap yelka orqali aylanib, yurishda davom etish. O'ng yelka bilan aylanib, yana yurishda davom etish;
7. Qo'llarni tomonlarga (o'ng-chap), yuqori va pastga harakatlantirib yurish.

Harakatli mashqlar.

1. Signalda keskin to'xtab sekin yugirish (6-8 marta);
2. Signal bo'yicha o'tirib – turib yurish va yugurish (6-8 marta);
3. 2 martadan 10 martagacha umbaloq oshish;
4. Joyida sakrash, bir oyoqlab va ikki oyoqlab sakrash (2-6 marta);
5. Aylanib va umbaloq oshib yugirish va sakrash (2-6 marta);
6. Yon tomonga sakrash, yuzi bilan oldinga, yonboshi bilan oldinga.

Joyida turib bajariladigan mashqlar.

1. Boshni o'ng va chapga burish, aylantirish (qo'llar belda);
2. Gavidani o'ng va chapga egish;
3. Gavidani o'ng va chapga burib, qo'llarni beldan qo'yib yuborish;
4. O'ng va chap oyoqlar bilan «qaldirg'och» qilish;
5. Joyida sakrash;

Giperkinez shaklli BSF bolalarning vestibular faoliyatini mashq qildirish uchun taxminiy mashqlar majmuasi (2-bosqich).

Orqa bilan yotib bajariladigan mashqlar.

1. Gavidani burish;
2. Yotgan holatda ochiq va yumiqlik ko'z bilan o'tirgan holatga o'tish.

Qorin bilan yotib bajariladigan mashqlar.

3. «Qayiqcha» tebranish;
4. Navbatma-navbat oyoqlarni tizzaga bukish, qo'l bilan «bross» usulida suzish.

To'rt oyoqlab bajariladigan mashqlar.

1. O'ng va chap oyoqni navbati bilan ko'tarish;
2. O'ng tovonga o'tirib, chap oyoqni cho'zish.

Harakatli mashqlar.

1. To'g'riga yurish (butun oyoq kafti bo'ylab va tovonda 2 minut);
  - a) to'g'ri,
  - b) o'ng va chap tomonga,
  - c) ochiq va yumuq ko'z bilan orqaga yurish,
2. O'ng va chapga 2-5 marta aylanib huddi shu (yuqoridagi) tarzda yurish;
3. Ochiq va yumuq ko'z bilan chap tomondan aylanib yurishda davom etish;
4. Ko'zlarni yumib va o'tirib-turib yurish;
5. Ko'zlarni yumib, signalda to'xtab va o'tirib-turib sekin yugurish;
6. Aylanib va umboloq oshib harakatlanish;
7. Ochiq va yumuq ko'z bilan bir oyoqda sakrash;
8. Maxsus snoryatlar bilan bajariladigan mashqlar: tebranma kursida, diskda va hokazo.



### **III-Bob bo'yicha xulosa**

Mujassam nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning tizimlilik va tadbirlarning kom'lekslilik yuqori malakali mutaxassislar bilan muvoffaqiyatli ta'lim jarayonini amalga oshirish mumkin. Aqli zaif va BSF bolalarda to'g'ri harakat malakalariga va harakat haqidagi tasavvurlarga ega emasligi tufayli davolovchi jismoniy tarbiya darslarida harakat malakalarini shakllantirish va harakatni o'zida his qilish orqali bolalarga to'g'ri tasavvurlar berilar ekan.

Sog'lom bolalar ongli ravishda bilimlarni egallashi, ko'nikma va malakalarga erishishi uchun bilish jarayoni yuqori darajada bo'lishi talab etiladi. Mujassam nuqsonli bolalarda esa bilish darajasining umumiy pastligi sababli ularda bilish jarayonlarining turg'un pastligi kuzatiladi. Korreksion ishning maqsadi Mujassam nuqsonli bolalarda irodani mustahkamlash, diqqatni taqsimlash, obrazli xotirani rivojlantirish, tasavvurni shakllantirish, tafakkur o'ratsiyalarini umumlashtirish, taqqoslash vazifalarini ota-onasi, tarbiyachisi, o'qituvchisi yordamida bajara olishga ( qisman bo'lsada) o'rgatishdan iborat.

## **Xulosa**

Bitiruv malakaviy ishda berilgan mavzu bo'yicha psixologik-pedagogik va tibbiy adabiyotlar o'rganib chiqildi.

Aqli zaif, BSF bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiya qilish va ularni o'qitish imkoniyatlari o'rganildi.

Ishdagi korreksion-rivojlantiruvchi yo'nalishning xususiyatlarini inobatga olib, bunday bolalarga korreksion ta'sirni amalga oshirish metod va uslublari ishlab chiqildi.

Mujassam nuqsonli kichik maktab yoshdagi bolalarni o'qitishda qo'llaniluvchi metod va usullarning samaradorligitekshirildi.

Mujassam nuqsonli bolalarni o'qitish muammolari bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan, o'z vaqtida ko'rsatiluvchi tibbiy, psixologik-pedagogik, ijtimoiy ish bunday kategoriyaga kiruvchi bolalarning shaxsiy rivojlanishi shaxs sifatida komol to'ishi dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hamda salbiy oqibatlarining 'aydo bo'lishining oldini oladi. Aynan ularning faoliyati jarayonida keyingi rivojlanish uchun im'lus hosil qilinadi.

Korreksion ishni tashkil qilishnimetodik taminlash uchun kiritilgan takliflarni qo'llash, Mujassam nuqsonli bolani shaxs sifatida shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Ta'lim bolalarning psixik rivojlanishida yetakchi rol o'ynaydi. Tibbiyot hodimlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar, davolovchi jismoniy tarbiya instruktorlari, surdo'edagog, tiflopedagog, ijtimoiy pedagog va psixolog kabi mutaxassislarning hamkorligidagi faoliyati o'quv jarayonini yuqori saviyali, har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilishga imkon beradi. Kom'leks ta'sirning asosiy maqsadi – Mujassam nuqsonli bolalarga korreksion yordam ko'rsatish. Korreksion yordam tufayli ular jamiyatga uning teng huquqli a'zosi sifatida ko'rinishlari mumkin.

Ma'lumki, Mujassam nuqsonli bolalar – anomal bolalarning, statistika jihatdan kam sonli qismidir. Tajribali defektolog – amaliyotchilarning tadqiqotlari va kuzatuvlariga asosan, bu bolalar maxsus ta'lim muassasalari kontingentining o'rtacha 40% ini tashkil etar ekan.

Bu bolalarni o'rganish ularning ta'limiy ehtiyojlarini aniqlash va ularni reabilitatsiya qilish tizimlarini ishlab chiqishning amaliy ehtiyoji katta.

Mujassam nuqsonli bolalarni o'qitish va tarbiyalash kam o'rganilgan bo'lib, korreksion pedagogikaning qiyin muammolaridan hisoblanadi. Bunday bolalarga yordam ko'rsatishning kom'leksliligi va tizimliligi g'oyalari boy tarixiy an'analarga ega.

O'zbekistonda diagnostika va korreksiyaga yo'naltirilgan reabilitatsion markazlarning 'ers'ektiv modellari mavjud. Bunday turdagi markazlarning tashkil qilishdan asosiy maqsad rivojlanishning turli nuqsonlariga ega bolalarga har tomonlama yordam ko'rsatishdir. Mujassam nuqsonli bolalarni diagnostika qilish va ularga ta'lim berish nozik differensatsiyani talab qiladi. Aqli zaif BSF bolalarni rivojlantirish va ularga ta'lim berish uchun o'timal sharoitlar yaratish muammosi yuzaga keladi. Bu muammoni yechishga ko'pgina muassasalar, yordamchi maktablar harakat qilmoqda.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

### **I.O'zbekiston Respublikasi Davlat qonunlari va dasturlari**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi / O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: “O'zbekiston” 1992
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1997
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi Qonuni Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1997

### **II.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

4. Mirziyoyev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” – T.: “O'zbekiston” 2017
5. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz” – T.: “O'zbekiston” 2017
6. Mirziyoyev SH.M. “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz” – T.: “O'zbekiston” 2017

### **Asosiy adabiyotlar ro'yxati**

1. E.F.Arxirova «Коррекционная работа с детьми с церебральным параличом» М. Просвещение. 1989г.
2. V.M.Astarova «Введение в дефектологию с основами нейро- и патопсихологии» М. Международная педагогическая академия, 1994г.
3. M.Y.Ayupova»Logopediya»Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. II nashr 2011y.
4. L.O.Badalyan, L.T.Jurba, O.V.Timonina «Детские церебральные параличи» Киев. 1988г.

5. L.O.Badalyan»Невропатология. Учебник для студентов дефектологических факультетов педагогических институтов» М. Просвещение. 1987г.
6. T.G.Bogdanova, T.V.Kornilova « Диагностика познавательной сферы ребенка» М. Роспедагенство. 1994г.
7. L.S.Vigotskiy « Собрание сочинений» М. 1983г.т.5.
8. S.D.Zabramnaya»Психолого-педагогическая диагностика умственного развития детей: учебник для студентов дефектологических факультетов педвузов и университетов» М. Просвещение, Владос. 1995г.
9. В.Р.Puzanova « Коррекционная педагогика» М. Academia. 2001г.
10. «Коррекционная работа во вспомогательной школе. Методические рекомендации» Челябинск. 1992г.
11. «Коррекционно-развивающая направленность обучения и воспитания детей с нарушениями интеллекта» М. МГПИ. 1986г.
12. I.Y.Levchenko, O.G.Prihodko « . Технологии обучения и воспитания детей с нарушениями опорно-двигательного аппарата» М. Academia. 2001г.
13. V.I.Lubovskiy « Психологические проблемы диагностики аномального развития детей» М. Педагогика, 1989г.
14. Е.М.Mastyukova, M.V.Ippolitova»Нарушение речи у детей с церебральным параличом» М. 1985г.
15. Е.М.Mastyukova Физическое воспитание детей с церебральным параличом» М. 1985г.
16. А.М.Nigayev « Основы коррекционной педагогики и специальной психологии».
- 25.N.M.Nazarovoy « Специальная педагогика» М. Academia. 2000г.
- 26.V.G.Petrova,I.V.Belevkova»Психология умственноотсталых школьников» М.2004г.

27.Т.М.Тarasova «Комплексы физических упражнений для реабилитации детей с различными формами детского церебрального паралича» Челябинск. ЧИПКРО. 1996г.

28.L.S.Svetkova «Методика диагностического нейропсихологического обследования детей» М. Роспедагенство. 1997г.

29.A.I.Soatov, K.X.Mamedov, P.M.Po'latova «Oligofrenopedagogikaasoslari» Toshkent. O'qituvchi. 1994y.

30.K.X.Mamedov, G.Shoumarov «Aqlizaifo'quvchilarpsixologiyasi» Toshkent. O'qituvchi. 1994y.

31.L.R.Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova «Maxsuspsixologiya» Toshkent. 2013y.

32 .L.R.Mo'minova, M.Y.Ayupova «Logopediya» Toshkent. 1994y.

33.L.R.Mo'minova «Oiladanogironbolalartarbiyasi» Toshkent. «Oila» markazi. 2000y.

34.V.S.Rahmonova «Maxsuspedagogika» Toshkent «G'.G'ulom» 2005y.

35.P.M.Po'latova «Maxsuspedagogika» (Oligofrenopedagogika) Toshkent «G'.G'ulom» 2005y.

### **Annotatsiya.**

Ushbu bitiruv malakaviy ish «Mujassam nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish xususiyatlari» mavzusida yozilgan.

Ushbu mavzudagi bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ushbu bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan. Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobida mavzuning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Ikkinchi bobida pedagogik tajriba-sinov metodikasi va o'tkazilgan tajribaning sinov natijalari berilgan. Uchinchi bobida esa, Mujassam nuqsonli bolalarda olib boriladigan korreksion ish xususiyatlari ochib berilgan.

### **Annotation.**

This annotation work is weitten on the theme «The matter of labour's correct behaviour for mental developing of pupils in additional schools».

The work includes introductory part, 3 chapters, conclusion and the list of references. The importance of the theme is proved and the aims and functions of it are determined in the introductory part. The scientific – theore weal aspects of the research are shown in the first chapter. In the second chapter, it is given about pedagogical practice – testuig methods. The matter of labour's correct behavior for mental developing of pupils in additional schools is clarified in the theid chapter.

